

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



O'QUV USLUBIY  
MAJMUA

TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT  
yo'nalishi**

**“MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO  
STANDARTLARI”  
moduli bo'yicha**

**O'QUV USLUBIY  
MAJMUA**

**Toshkent – 2022**

**Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil "7" dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchilar:** prof. Sh.Ergasheva

**Taqrizchi:** TDIU, iqtisod fanlari doktori, professor, Ibragimov A.G.

*Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

## MUNDARIJA

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>5</b>
<b>II. MODULNI O’QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....</b>	<b>11</b>
<b>III. MA’RUZA MATNLARI.....</b>	<b>17</b>
<b>IV. AMALIY MASHG’ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO’YICHA TAVSIYALAR.....</b>	<b>50</b>
<b>V. BITIRUV ISHI UCHUN MAVZULAR .....</b>	<b>54</b>
<b>VI. KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>55</b>
<b>VII. GLOSSARIY .....</b>	<b>71</b>
<b>VIII. ADABIYOTLAR RO’YXATI.....</b>	<b>74</b>

# I. ISHCHI DASTUR

## Kirish

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli, 2019 yil 27 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019 – 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejaları asosida shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning

mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” **modulining maqsadi:** pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurs tinglovchilarini innovatsion ta'lim texnologiyalariga doir bilimlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, joriy etish, ta'lim amaliyotida qo'llash va yaratish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” **modulining vazifalari:**

- hisob va hisobot qo'llanilish sohalarini aniqlashtirish;
- tinglovchilarda xalqaro hisob va hisobotdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- tinglovchilarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirishga doir proektiv, prognostik va kreativ kompetentlikni rivojlantirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” hamda “Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili” modullari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### ***Tinglovchi:***

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining kontseptual asoslari;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi vazifalarini;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tashkil etishning usul, uslubiyotlari hamda huquqiy-me'yoriy asoslarini;
- rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobining tashkiliy tamoyillarini;
- O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob tizimini;
- O'zbekiston Respublikasi hisob tizimlaridagi xalqaro integratsiya va uni amaliyotga tadbiq qilish;
- O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob turlarini;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixini;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita (MHXSQ)ning maqsadi va uning tavsifini;
- tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifini;
- nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifini;

- moliyaviy hisobot transformatsiyasini ***bilishi kerak.***

***Tinglovchi:***

- buxgalteriya hisobining tashkiliy tamoyillari va vazifalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qabul qilish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish;
- moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslarini qo'llash;
- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining xorij tajribasi va zamonaviy tizimlarini qo'llash ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

***Tinglovchi:***

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llashda axborot texnologiyalaridan foydalana olish hamda o'quv jarayoniga tadbiq etish;

- buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro tajribalarini qiyosiy tahlil qila olish hamda ta'lim jarayonida qo'llash;

- buxgalteriya hisobini yuritishda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanishga oid ***malakalariga ega bo'lishi zarur.***

***Tinglovchi:***

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha huquqiy-me'yoriy hujjatlardagi tartib va qoidalarni amaliyotga joriy qila olish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishda faol qatnashish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslarini qo'llash ***kompetentsiyasiga ega bo'lishi zarur.***

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

O'quv modul mazmuni o'quv rejadagi uchinchi va beshinchi blok hamda mutaxassislik o'quv modullarining barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda professor-o'qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

## **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Hozirgi globallashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi tizimi va undagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirgan bo'lib, unda mamlakatimiz buxgalteriya hisobi tizimidagi islohotlarning kontseptual asoslari yoritib berilgan. Zamonaviy iqtisodchi pedagog kadrlar uchun ushbu yo'nalishdagi ma'lumotlarni o'zlashtirish talab qilinadi va bunda o'quv modulning roli yuqoridir.

### **Modullar bo'yicha soatlar taqsimoti:**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		Ko'chma mashg'ulot		
1	Dunyo mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.	6	2	4	
2	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o'rni.	6	2	4	
3	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslari	8	4	4	
<b>Jami:</b>		<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>	

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Dunyo mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.**

Rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobining tashkiliy tamoyillari va vazifalari, unga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob tizimi, uni tarkibiy tuzilishi va hisob turlari.

### **2-mavzu: Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o'rni.**

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita(MHXSQ)ning maqsadi va uning



tavsifi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari.

### **3-mavzu: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslari**

Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Moliyaviy hisobot transformatsiyasi.

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot:**

#### **Dunyo mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.**

Rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobining tashkiliy tamoyillari va vazifalari, unga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob tizimi, uni tarkibiy tuzilishi va hisob turlari.

### **2- amaliy mashg'ulot:**

#### **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o'rni.**

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita(MHXSQ)ning maqsadi va uning tavsifi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari.

### **3- amaliy mashg'ulot:**

#### **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslari**

Tushumlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Nomoliyaviy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi.

### **4-amaliy mashg'ulot:**

#### **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslari**

Baholashni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi. Nomoliyaviy majburiyatlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi.

### **5-amaliy mashg'ulot:**

#### **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslari**

Moliyaviy instrumentlarni hisobga oluvchi standartlarining tavsifi.

### **6-amaliy mashg'ulot:**

#### **Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini kontseptual asoslari**

Konsolidatsiyalash asoslarini hisobga oluvchi standartlarining tavsifi.  
Moliyaviy hisobot transformatsiyasi.

#### **KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

Modulning o'quv dasturida ko'chma mashg'ulotlar rejalashtirilmagan.

#### **O'QITISH SHAKLLARI**

Dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh shakllaridan foydalanish. O'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni, o'quv-uslubiy majmua) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• to'siqlar

### Namuna:

**Topshirik:** Buxgalteriya hisobotini shakllantirishni SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	kuchli tomonlari	Moliyaviy hisobotni xalqaro tizimida tayyorlanishi
<b>W</b>	kuchsiz tomonlari	Hisobot turlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish
<b>O</b>	imkoniyatlari (ichki)	Hisob siyosati asosida ichki imkoniyatlar, ya'ni choraklik, yillik hisobot ma'lumotlarini shakllantirish
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	Nazorat nuqtai nazardan xo'jalik faoliyatini boshqarishda boshqaruv qarorlarini amalga oshmasligi

**Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari**

**INSERT JADVALI**

V	+	-	?
Aksiyalar: - oddiy; - imtiyozli	Ustav kapitalani shakllantirishdagi kurs farqlari	Pay va qo'yilmalar	Mulknini qayta baholash bo'yicha tuzatishlar
Emission daromad	Tekinga olingan mulk	Grantlar	Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy, imtiyozli
Rezerv kapitali	Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari	Subsidiyalar	
		Maqsadli foydalanishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari	

# KLASTER



## TOIFALASH JADVALI

<b>XUSUSIY KAPITAL</b>			
<b>Ustav kapitali</b>	<b>Qo'shimcha kapital</b>	<b>Foyda va xarajatlar</b>	<b>Maqsadli tushumlar</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- oddiy aksiyalar;</li> <li>- imtiyozli aksiyalar</li> <li>- paylar;</li> <li>- ulushlar.</li> </ul>	<p>1. Qo'shilgan kapital:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- emission daromad;</li> <li>- ustav kapitalni shakllantirishdagi kurs farqlari.</li> </ul> <p>2. Rezerv kapitali:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar;</li> <li>- rezerv kapitali;</li> <li>- tekinga olingan mulk</li> </ul>	<p>1. Foyda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- taqsimlanmagan foyda;</li> <li>- jamg'arilgan foyda.</li> </ul> <p>2. Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervlari</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- grantlar;</li> <li>- subsidiyalar;</li> <li>- a'zolik badallari;</li> <li>- maqsadli;</li> <li>- foydalanishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari;</li> <li>- boshqa maqsadli tushumlar.</li> </ul>


## B/BX/B JADVALI

<b>Bilaman</b>	<b>Bilishni xohlayman</b>	<b>Bilib oldim</b>
Aksiyalar: - oddiy; - imtiyozli	Pay va qo'yilmalar	
Emission daromad	Grantlar	
Rezerv kapitali	Subsidiyalar	
Ustav kapitalni shakllantirishdagi kurs farqlari	Maqsadli foydalanishga yo'naltirilgan soliq imtiyozlari	
	Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar	
	Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy, imtiyozli	

## KONSEPTUAL JADVAL

<b>Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar shakli</b>	<b>Ta'riflar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar</b>		
	<i>Kapitalning mulkiy shakli</i>	<i>Boshqaruv shakli</i>	<i>Ishlab chiqarish rejalari</i>
<b>Aksiyadorlik jamiyatlari</b>	Aksiyadorlar	Aksiyadorlar yig'ilishi	Aksiyadorlar tomonidan strategik reja asosida
<b>Mas'ulyati cheklangan jamiyatlar</b>	Ta'sischilar	Boshqaruv organi	Bozor talabidan kelib chiqqan holda

**Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashning yo'l va vositalari**  
**VENN DIAGRAMMASI**





### III. MA'RUZA MATNLARI

#### 1-mavzu: Dunyo mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari

---

##### Reja:

1.1. Dunyo mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.

1.2. Rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobining tashkiliy tamoyillari va vazifalari, unga ta'sir etuvchi omillar.

1.3. Chet mamlakatlarda buxgalteriya hisobini huquqiy jihatdan tartibga solish amaliyotidagi xususiyatlar.

1.4. Buxgalteriya hisobi modellari va tizimlarining tasnifi.

1.5. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob tizimi, uni tarkibiy tuzilishi va hisob turlari.

**Tayanch iboralar:** *Hisobi tizimi, tezkor hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi, o'lchov birliklari, natura o'lchov birligi, vaqt o'lchov birligi, pul o'lchov birligi, xo'jalik hisobiga qo'yiladigan talablar, buxgalteriya hisobi printsiplari, ta'minot jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni, sotish jarayoni, buxgalteriya hisobi predmeti, xo'jalik mablag'lari, mablag'larning tashkil topish manbalari, xo'jalik jarayonlari, hujjatlashtirish, inventarizatsiya, schyotlar tizimi, ikkiyoqlama yozuv, baholash, kalkulyatsiya, hisobot.*

#### 1.1. Dunyo mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning umumiy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.

Jahon amaliyotida buxgalteriya hisobini hamkorlik tili, biznes va ishbilarmonlik kaliti deb bejiz tan olinmagan. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan ko'pchilik manfaatdor shaxslar bo'lib, undan, xususan: investorlar va kreditorlar (tashqi foydalanuvchilar), kompaniya menejerlari (ichki foydalanuvchilar), davlat organlari xizmatchilari, raqobatchilar va boshqalar tomonidan foydalaniladi.

Buxgalteriya hisobi xizmatining natijaviy ko'rsatkichi moliyaviy hisobotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi va vazifalari investitsiyalar kiritish va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda zarur, hal qiluvchi va foydali bo'lishi, undan foydalanuvchilarga pul mablag'larining kelgusidagi harakatini baholashga yordam berishi, mulkiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardagi o'zgarishlarni haqqoniy va ob'ektiv aks ettirilgan axborotni taqdim etishdan iborat.

Xorijiy davlatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan tamoyillari sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqlar xo'jalik faoliyatini tashkil etish va mavjud mulkchilik shakllarining xilma-xilligi hamda hisob amaliyotiga tashqi (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, jug'rofiy, texnologik va boshqa) omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladi.

## **1.2. Rivojlangan davlatlarda buxgalteriya hisobining tashkiliy tamoyillari va vazifalari, unga ta'sir etuvchi omillar**

Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobining tamoyillari qilib quyidagilar hisoblanadi:

1. Amal qiluvchi korxonalar (davomiylik) tamoyili
2. Doimiylik (qiyoslanuvchanlik) tamoyili
3. Ehtiyotkorlik (konservativizm) tamoyili
4. Muvofiqlik (hisoblash) tamoyili

*Amal qiluvchi korxonalar (davomiylik) tamoyili* shuni bildiradiki, buxgalteriya hisobini yuritish muddati xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat ko'rsatgan muddatga mos bo'lishi lozim, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi sub'ekt tugatilgan yoki u bankrot deb e'lon qilingan paytgacha yuritilishi lozim. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatini to'xtatgan kundan boshlab, buxgalteriya hisobini yuritish ham to'xtatiladi.

Moliyaviy hisobotni davomiylik qoidasi asosida tayyorlash xo'jalik yurituvchi sub'ekt doimiy harakat qilishini va uzoq muddat davomida o'z faoliyatini davom ettirishini, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zini tugatishiga yoki o'z faoliyati sohasini qisqartirishga ehtiyoji yo'qligini bildiradi.

Agar rahbar xo'jalik yurituvchi sub'ektning tugatish yoki uning faoliyati ko'lamini qisqartirish zarur deb hisoblasa yoxud shunday vaziyatga olib keladigan sharoit mavjud deb o'ylasa, moliyaviy hisobga tushuntirishlarda bunday faktning mazmunini ochib berishi va moliyaviy hisobotni tuzishga asos bo'lgan jihatlarni, davomiylik tamoyilidan chekinish sabablarini ko'rsatishi zarur.

Moliyaviy hisobotlar, odatda tadbirkorlik sub'ekti uzluksiz ishlaydi va faoliyatini ko'zlangan kelajakda davom qiladi degan faraz asosida tayyorlanadi. Shunday ekan, tadbirkorlik sub'ekti o'z faoliyatini tugatish yoki faoliyat ko'lamini muhim darajada qisqartirish niyati ham, zarurati ham yo'q deb taxmin qilinadi; agar bunday niyat yoki zaruriyat mavjud bo'lsa, moliyaviy hisobotlar boshqacha asosda tayyorlanishi lozim bo'lishi mumkin va agar shunday bo'lsa, ushbu asos ochib beriladi.

*Doimiylik (qiyoslanuvchanlik) tamoyili.* Moliyaviy axborot foydali va mazmunli bo'lishi uchun u turli hisobot davrlaridagi axborotlarga qiyoslanadigan bo'lishi kerak. Hisobotdan foydalanuvchilar xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotni tayyorlash chogida foydalangan hisob siyosatidan, bu siyosatdagi barcha o'zgarishlardan va bunday o'zgarishlarning natijalaridan xabardor bo'lishi kerak.

Moliyaviy hisobotda undan oldingi davrga nisbatan butun qiyosiy axborotni ochib berish zarur. Oldingi davrdagi moliyaviy hisobotlarning sharhlari va bayon

qiluvchi axborotlari joriy hisobot davri uchun ham taqdim etilishi va joriy hisobot davri moliyaviy hisobotlarini xolisona taqdim etish uchun zarur bo'lsa, yangilanishi kerak.

Moliyaviy hisobotning ko'rsatkichlarini tuzatish yoki uning moddalarini tasnif etish chogida joriy hisobot bilan qiyosiylikni ta'minlash uchun qiyoslama miqdorlar qaytadan tasnif etilishi va ayni paytda bunday tasnifning xarakteri, miqdori, sababi ochib berilishi lozim. Buning imkoniyati bo'lmasa, xo'jalik yurituvchi sub'ekt qayta tasnif etish sababini va agar miqdorlar qaytadan tasnif etilgan bo'lsa kiritilgan o'zgartishlarning xarakterini ochib berishi lozim.

Agar axborot faqat taqdim etish uchun, masalan ma'lum bir davr boshidagi va oxiridagi nomoddiy va moddiy aktivlarning saldosi tekshirish uchun xizmat qilsa, bunday hollarda qiyoslanadigan axborot talab qilinmaydi.

Shunday vaziyatlar ham borki, joriy davr bilan qiyoslash maqsadida qiyoslanadigan axborotni qayta tasnif etish mumkin bo'lmaydi. Masalan, bundan oldingi davrdagi axborot qayta tasnif etish mumkin bo'lmaydigan tarzda to'plangan bo'lishi mumkin, bu esa axborotni o'zgartirishga amalda imkon bermaydi. Bunday vaziyatda qiyoslanadigan miqdorlarga kiritilishi mumkin bo'lgan tuzatishlarning xarakteri ochib berilishi lozim.

Qiyosiylik tamoyiliga rioya qilish uchun quyidagi shartlarni bajarish kerak:

- butun axborot miqdoriga nisbatan talablar;
- hisobot yilida hisobotni taqdim etishga yondashuv o'zgargan taqdirda undan oldingi davr axboroti qiyoslash maqsadlari uchun qaytadan tasnif etilishi lozim.

Agar amaliy mulohazalar bilan qayta tasnif etish mumkin bo'lmasa, basharti qayta tasnif amalga oshirilganda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning sabablari va xarakteri ochib berilishi lozim.

Foydalanuvchilarning qarorlari muqobil yondashuvlardan birini tanlashni o'z ichiga oladi, masalan, investitsiyani sotish yoki saqlab turish, yohud bu yoki boshqa hisobot beruvchi tadbirkorlik sub'ektiga investitsiya qilish to'g'risidagi qarorlardan birini tanlash. Shunday qilib, hisobot beruvchi tadbirkorlik sub'ekti to'g'risidagi axborotni boshqa tadbirkorlik sub'ektlari to'g'risidagi o'xshash axborot bilan va mazkur tadbirkorlik sub'ektiga tegishli bo'lgan boshqa davr yoki boshqa sanaga bo'lgan o'xshash axborot bilan taqqoslash mumkin bo'lsagina u foydalibroq bo'ladi.

Qiyoslanuvchanlik foydalanuvchilarga narsalarning o'xshashliklari va farqlarini aniqlash va tushunishga yordam beradigan sifat xususiyatidir. Boshqa sifat xususiyatlaridan farqli ularoq, qiyoslanuvchanlik bir narsaga (moddaga) tegishli bo'lmaydi. Qiyoslash kamida ikki narsa (modda) bo'lishini talab etadi.

Izchillik qiyoslanuvchanlik bilan bog'liq bo'lsa-da, aynan shu ma'noni bildirmaydi. Izchillik bir hisobot beruvchi tadbirkorlik sub'ekti doirasida har xil davrlardagi yoki bir davr ichida har xil tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan bir

xil moddalarga nisbatan bir xil usullar qo'llanilishini anglatadi. Qiyoslanuvchanlik maqsad bo'ladigan bo'lsa, izchillik ushbu maqsadga erishishga yordam beradi.

Qiyoslanuvchanlik – bu bir xillik emasdir. Axborot qiyoslanuvchan bo'lishi uchun o'xshash narsalar o'xshash ko'rinishi kerak va bir biridan farq qiladigan narsalar bir biridan farq qiladigan ko'rinishga ega bo'lishi kerak. O'xshash narsalarni har xil qilib ko'rsatish orqali moliyaviy axborotning qiyoslanuvchanligini oshirishga qaraganda bir biriga o'xshamagan narsalarni o'xshash qilib ko'rsatish orqali ushbu qiyoslanuvchanlikni ko'proq qilib oshirib bo'lmaydi.

Qiyoslanuvchanlikning ma'lum darajasiga, asosiy sifat xususiyatlariga rioya qilish orqali, ehtimol, erishish mumkin. Tabiiy-ki, o'rinli iqtisodiy hodisani ishonchli taqdim qilish boshqa hisobot beruvchi tadbirkorlik sub'ekting o'rinli iqtisodiy hodisasini ishonchli taqdim qilish bilan ma'lum darajada qiyoslanuvchan bo'lishi kerak.

Bitta iqtisodiy hodisa turli usullar yordamida ishonchli taqdim etilishi mumkin bo'lsa-da, aynan bitta iqtisodiy hodisani hisobga olish uchun muqobil usullarni ruxsat etish qiyoslanuvchanlikni pasaytiradi.

*Ehtiyotkorlik(konservativizm) tamoyili.* Ehtiyotkorlik tamoyili moliyaviy hisobotda aktivlar va daromadlar narxining oshirilib yuborilishiga va majburiyatlar yoki xarajatlar bahosi kamaytirilishiga yo'l qo'yilmasligi lozimligini bildiradi.

Bu tamoyilning qo'llanishi yashirin zahiralarni barpo etishga yoki ta'minotni oshirib ko'rsatishga, aktivlar yoki foydani, majburiyatlar va xarajatlarni ataylab kamaytirishga va oshirib ko'rsatishga huquq bermaydi.

*Muvofiqlik (hisoblash) tamoyili.* Daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobida e'tirof etiladi va kelgan davrda tushishi yoki paydo bo'lishiga qarab (pul mablag'larini olish yoki to'lash asosida emas) moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.<sup>1</sup>

Buxgalteriya hisobi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonunining (yangi tahriri) 3-moddasida: “Buxgalteriya hisobining asosiy printsiplari. Uzlusizlik, ishonchlilik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi buxgalteriya hisobining asosiy printsiplaridir” -deb belgilangan.<sup>2</sup>

Buxgalteriya hisobini yuritish amaliyotining mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni turli xil mamlakatlarning taraqqiyot darajasi va mintaqaviy joylashuviga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

– buxgalteriya hisobi axborotining asosiy foydalanuvchilari bo'lgan investorlar va kreditorlarning toifalariga ko'ra;

---

<sup>1</sup> Молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш учун концептуал асос. <https://www.mf.uz/uz/component/k2/item/74-mezhdunarodnye-standarty/Мурожаат> килинган сана: 16\_12\_2017 йил

<sup>2</sup> <http://xs.uz/index.php/uzhzhatlar/item/7279-bukhgalteriya-hisobi-to'risidagi> qonun-yangi-tahriri

- investitsiya qilish jarayoniga jalb etilgan jismoniy va yuridik shaxslarning soni qarab;
- investorlarning biznesni boshqarishdagi ishtiroki va roliga ko'ra;
- moliya va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanish darajasi qarab;
- mamlakatlarning global xalqaro iqtisodiy jarayonlar va tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish darajasiga ko'ra va h.k.

Mazkur omillarning buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritishga ta'sirini ayrim mamlakatlarning rivojlanishi misolida tahlil qilamiz.

AQSh va Buyuk Britaniya davlatlari rivoji tahlilini guvohlik berishicha, sanoat inqilobi asosan o'rta biznesning paydo bo'lishi hisobidan boylikning keskin ortishiga olib keldi. Aynan mazkur jarayon moliyaviy hisobning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, chunki investorlar va kreditorlarning soni oshdi, ularning tarkibi xilmaxillashib bordi. Ko'plab kompaniyalar korporativ mulk shaklini qabul qildi. Kompaniyalar egalari, investorlar o'z kapitalini tezkor boshqarishni professional boshqaruvchilarga topshirib, o'zini ushbu funktsiyadan xalos eta boshlashdi. Bunday holatda moliyaviy hisob yuritish va uning axborotlari kompaniyaning moliyaviy holati haqidagi ma'lumotlarning eng muhim manbaiga aylandi. Boshqaruv xodimlari tomonidan aksiyadorlarga moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilish uchun moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi amaliyotining paydo bo'lganligi bejiz emas, chunki aynan ushbu holat moliyaviy hisobotlarning investorlar va kreditorlarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilganligini belgilab berdi. Moliyaviy hisob AQSh va Buyuk Britaniyada ko'plab yillar mobaynida ana shunday yo'nalishga ega bo'lganligi ta'sirida mazkur mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozori va birjalari tashkil etildi. Natijada bu mamlakatlar kompaniyalarini moliyaviy hisobotlari tahlil qilishga qulay shaklga keltirildi va moliyaviy hisobning maqsadi - xo'jalik faoliyatining rentabelligini ta'minlashdan iborat qilib belgilangan.

Germaniya, Shveytsariya kabi mamlakatlarda esa moliyaviy siyosat biznes ehtiyojlarining katta qismini qanoatlantiruvchi banklarning soni kamligi bilan belgilanadi. Bu bir vaqtning o'zida oddiy va samarali yo'l hisoblangan aksiyadorlik kompaniyalarining markazlashuviga ham olib keldi, chunki bunda kompaniya mulkdorlar va kreditorlarning cheklangan soniga ega bo'ladi. Mazkur mamlakatlar hukumatlari masalan, amerika kompaniyalariga nisbatan kompaniyalar haqidagi ayrim axborotlarni chop etishni talab qiladi, shuning uchun kompaniyalar ham moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va e'lon qilishga majbur ekanligi sababli, ular hisobotni kamroq detallashtirilgan ko'rinishda tayyorlaydi. Bu mamlakatlarda moliyaviy hisobotlar avvalambor, kreditor banklarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, bunday konservatizm holati buxgalteriya amaliyoti uchun xosdir.

Ayrim davlatlarda hukumat milliy resurslarni boshqarishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Frantsiya va Shvetsiyada buxgalteriya hisobining rivoji bir muncha boshqa xususiyatga ega. Korxonalar makroiqtisodiy rejalashtirish doirasida hukumatning iqtisodiy siyosatiga amal qilishi shart. Bu davlatlarda hukumat nafaqat biznesning moliyaviy imkoniyatlarini nazorat qiladi, balki zarur hollarda investor yoki kreditor rolida ham ishtirok etadi. Pirovardida ta'kidlash lozimki, buxgalteriya hisobi, avvalambor, davlat reja organlarining ehtiyojlariga yo'naltirilgan, firma va kompaniyalar esa hisob va hisobotlar sohasidagi unifikatsiyalangan (yagonalashtirilgan) standartlarga amal qilishga majbur ekanligini e'tirof etish lozim.

### **1.3. Chet mamlakatlarda buxgalteriya hisobini huquqiy jihatdan tartibga solish amaliyotidagi xususiyatlar**

Hozirgi paytda xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobini huquqiy jihatdan tartibga solishning ikkita yo'nalishi shakllangan bo'lib, ular mamlakatda amal qilayotgan qonunchilik va uning ijtimoiy taraqqiyotni turli qirralariga ta'siri jihatdan farq qiladi. Birinchi yo'nalishga buxgalteriya hisobiga taalluqli qonunlarning sertarmoq kodeksiga ega bo'lgan mamlakatlar kiradi. Ikkinchi yo'nalish umumiy huquq yo'nalishidagi qonunchilikni qo'llovchi mamlakatlarni qamrab olgan.

Birinchi holatda qonunlar majburiy ko'rsatmalar majmuasini o'zida namoyon etgan holda qat'iy belgilangan xususiyatga ega. Bu holat jismoniy va yuridik shaxslar qonunning har bir bandiga og'ishmay amal qilishi lozimligini anglatadi. Mazkur yondashuvga amal qiluvchi aksariyat mamlakatlarda hisob yuritish standartlari davlat qonunlari darajasiga ib chiqilgan. Bunda hisob yuritish tartib-taomillari barcha darajalarda qat'iy belgilanib, ancha chegaralab qo'yiladi. Bunday mamlakatlar jumlasiga Germaniya, Frantsiya, Argentina va boshqalar kiradi, ularda buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi davlat byudjetiga tushadigan soliqlarini hisoblash va ularning o'z vaqtida hamda to'liq to'lanishini nazorat qilishdan iborat.

Ikkinchi guruh mamlakatlari: Buyuk Britaniya, AQSh va boshqalarda cheklovlarni o'zida namoyon etuvchi umumiy qonunlarning to'plami jismoniy va yuridik shaxslar ular doirasida harakat erkinligiga ega bo'ladigan chegaralarni ko'rsatadi. Bunday mamlakatlarda hisob yuritish standartlari davlat tomonidan tartibga solinmaydi, balki turli buxgalterlarning kasbiy tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Bu standartlar ancha moslashuvchan bo'lib, ular turli iqtisodiy-siyosiy o'zgarishlar ta'sirida tahrir qilib tuzatib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy nuqtalaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iboratdir. Avval boshdanoq biz o'zimiz uchun muhim

saboq chiqarib oldik – zarur huquqiy omilni shakllantirmasdan turib, tegishli qonunlar va me’yoriy hujjatlarni qabul qilmasdan turib, islohotlarni amalga oshirishning ishonchli kafolatini, islohotlarni orqaga chekinmasligining kafolatini amalda yaratib bo’lmaydi”.<sup>3</sup> Ushbu bashoratlar hozirgi kunda o’zining dolzarbligini yaqqol nomoyon qildi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2017–2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishlari bo’yicha harakatlar strategiyasida “Lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobiga kengaytirish” masalasining qo’yilishi<sup>4</sup>, shuningdek, mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzalarida “Xalqaro standartlashtirish tashkilotning 21 ming standartdan atigi 13 foizi mamlakatimizda joriy etilgan”ligi<sup>5</sup> xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobi va auditni tashkil etish va uning ilmiy-nazariy hamda uslubiy asoslarini ishlab chiqish masalasini o’ta dolzarb ekanligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ham ko’pchilik rivojlanayotgan davlatlar qatorida buxgalteriya hisobini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, uning milliy standartlarini yaratish va tartibga solish bo’yicha qonuniy baza zarur edi.

Shu zaruriyat tufayli respublikamizda 1996 yil 30-avgustda “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun buxgalteriya hisobi islohotining asosiy elementi bo’lib, turli mulk shaklidagi barcha korxonalar, muassasa va tashkilotlarda yagona tartibda hisob yuritishni tartibga soladigan bo’ldi, milliy buxgalteriya hisobi standartlariga talablar qo’ydi va O’zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimining asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Bundan tashqari, u buxgalteriya hisobi sohasida huquqiy asoslarni, maqsad va vazifalarni, majburiyat va burchlarni, shuningdek moliyaviy hisobotni tuzish va matbuotda e’lon qilishdek buxgalteriya hisobi oldiga qo’yilgan talablarni belgilaydi. Buxgalteriya hisobini davlat

---

<sup>3</sup> И.А.Каримов. [Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида / И. А. Каримов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 269 б.](#)

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармойиши. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон, 88-модда)

2.“Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик — ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якуналари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг мухим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. «Халқ сўзи», 2017 йил 16 январь (№ 11 (6705)) сони

tomonidan tartibga solish bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro standartlarga va umumiy qabul qilingan talablarga javob beradgan buxgalteriya hisobi tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Buxgalteriya hisobi tizimini rivojlanishining navbatdagi bosqichi xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos ravishda O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlarini yaratish bo'ldi.

Moliyaviy hisobot standartlariga bo'lgan ehtiyojni shu narsa taqozo etdiki, moliyaviy hisobotni tayyorlashda buxgalteriya ma'lumotlarini noto'g'ri talqin etish, bir xil emaslik va noaniqliklar, tavakkalchiliklarga duch keldi. Oldindan tuzilgan standartlar majmuasi yo'q bo'lganligi uchun, har bir tashkilot o'z standartlarini ishlab chiqishi kerak edi va moliyaviy hisobotga qiziquvchilar hisobotlarni o'rganishdan oldin har bir korxonaning o'ziga xos standartlarini o'rganib chiqishga majbur bo'lar edi. Natijada korxonalar moliyaviy hisobotlarni qiyoslash imkoniyati bo'lmas edi. Bunday holatlarni minimallashtirish uchun buxgalteriya hisobi vakillari umumqabul qilingan va hamma joyda foydalaniladigan moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiqishga astoydil harakat qildilar.

Prof.Sotivoldiev A.S. va Sotivoldieva D.A.lar yozadilar: "Jahonda moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiqish bilan 1973 yil 29-iyunda tashkil topgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha komiteti (MHXSK) shug'ullanadi. Bu komitet buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiquvchi jahonda yagona tashkilot bo'lib hisoblanadi".<sup>6</sup>

O'zbekiston Respublikasi 1998 yildan boshlab "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi Qonun"ga asosan milliy standartlar qabul qilina boshladi. Hozirgacha O'zbekiston Respublikasida 25 ta buxgalteriya hisobi milliy standartlari qabul qilindi. Bu standartlarning barchasi moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanib, Adliya Vazirligida huquqiy ekspertizadan va ro'yxatdan o'tkazilgan.

Har bir standart qoidalarining o'ziga xos ro'yxati bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini belgilaydigan va O'zbekiston Respublikasiga buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga soluvchi tizimning elementi hisoblanadi.

Buxgalteriya Hisobining Xalqaro Standartlari bo'yicha Kengash hozirgi paytda mazkur kontseptual asosga o'zgartirish kiritish jarayonidadir. Kontseptual asosni o'zgartirish bo'yicha loyiha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Har bitta bob tugallanganidan keyin 1989 yilda chop etilgan Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish bo'yicha kontseptual asosning tegishli bndlari almashtiriladi. Kontseptual asosni o'zgartirish bo'yicha loyiha nihoyasiga yetganidan

---

<sup>6</sup> Сотиволдиев А.С.,Сотиволдиева Д. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби тизимининг ривожланиш босқичлари ва истиқболлари.-Т.:ТДИУ халқаро конференция материаллари. 2011 й.



keyin Kengash “Moliyaviy Hisobotning Kontseptual Asosi” deb nomlangan to’liq, keng qamrovli, yagona xujjatga ega bo’ladi.<sup>7</sup>

Moliyaviy hisobotlar butun dunyoda tashqi foydalanuvchilar uchun ko’pgina tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan tayyorlanadi va takdim qilinadi. Bunday moliyaviy hisobotlar turli davlatlarda bir-biriga o’xshash bo’lib tuyulsa ham, ular o’rtasida turli ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlar hamda har xil davlatlarda milliy talablar o’rnatilganida moliyaviy hisobotning turli foydalanuvchilarining talablari hisobga olinganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo’lgan farqlar mavjuddir.

Bunday turli sharoitlar moliyaviy hisobot elementlarining turlicha ta’riflari ishlatilishiga olib keldi: masalan aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlar. Ular, shuningdek, moliyaviy hisobot moddalarini tan olishda har xil mezonlardan foydalanish hamda ushbu moddalarni baholash uchun har xil asoslarni ma’qul deb hisoblashga sabab bo’ldi. Bu esa moliyaviy hisobotni qo’llash doirasi va ularda ochib beriladigan ma’lumotlarga ham ta’sir ko’rsatdi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo’yicha Kengash moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish bilan bog’liq bo’lgan qoidalar, buxgalteriya hisobi standartlari va tartiblarini uyg’unlashtirish orqali ushbu farqlarni kamaytirishni o’z zimmasiga oldi. U shunga amindirki, iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydali bo’lgan ma’lumotni ta’minlab berish maqsadida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotlarga e’tiborni qaratish orqali, kelgusida yanada ham yaxshiroq uyg’unlashtirishga erishish mumkin.

Kengashning fikricha, ushbu maqsadda tayyorlangan moliyaviy hisobotlar aksariyat foydalanuvchilarning umumiy talablariga javob beradi. Chunki deyarli barcha foydalanuvchilar iqtisodiy qarorlarni qabul qiladi, masalan, quyidagilar to’g’risidagi qarorlarni:

- ulushli investitsiyalarni qachon sotib olish, saqlab turish yoki sotish,
- (rahbariyatning mas’uliyati yoki boshqarish qobiliyatini baholash,
- adbirkorlik sub’ekti tomonidan o’z xodimlariga boshqa imtiyozlarni berish va to’lash qobiliyatini baholash,
- tadbirkorlik sub’ektiga berilgan qarz mablag’lari bo’yicha ta’minotni baholash,
- soliq siyosatini aniqlash,
- foydaning taqsimlanadigan qismini va dividendlarni aniqlash,
- milliy daromad bo’yicha statistik ma’lumotlarni tayyorlash va ulardan foydalanish,
- tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatini tartibga solish.

---

<sup>7</sup> Молиявий ҳисоботнинг концептуал асоси. Концептуал асос Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари бўйича Кенгаш томонидан 2010 йил сентябрда чоп этилган. <https://www.mf.uz/uz/component/k2/item/74-mezhdunarodnye-standarty/Мурожаат> қилинган сана: 16-12-2017 йил

Shunga qaramasdan, hukumatlar o'z maqsadlari uchun odatda boshqa yoki qo'shimcha talablarni belgilashi mumkinligini Kengash tan oladi. Ammo, bu talablar boshqa foydalanuvchilarning manfaatini ko'zlab chiqariladigan moliyaviy hisobotlarga ta'sir qilmasligi kerak; bundan ushbu moliyaviy hisobotlar mazkur foydalanuvchilarning talablariga javob beradigan xolatlar istisno.

R.Abdurahmonovning ta'kidlashicha: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bilan bir qatorda AQShning milliy standartlari asosida tuziladigan moliyaviy hisobotlar ham amal qiladi (US GAAP). Bu standartlar ma'lum ma'noda xalqaro standartlar sifatida qaralishi mumkin. Biroq, oxirgi to'rt yillik kuzatuvlar AQSh birjalarida MHXS bo'yicha hisobot tuzuvchi kompaniya va firmalar sonining ortganligini ko'rsatmoqda. Bundan avvallari US GAAP bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlagan MDH davlatlaridagi xo'jalik sub'ektlari ham mustasno emas".<sup>8</sup>

Moliyaviy hisobotlar, aksariyat xollarda, tiklanadigan boshlang'ich qiymat va nominal moliyaviy kapitalni saqlab turish kontseptsiyasiga asoslangan buxgalteriya hisobi modeliga muvofiq tayyorlanadi. Boshqa modellar va kontseptsiyalar iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun foydali bo'lgan axborotni ta'minlash maqsadiga erishish uchun munosibroq bo'lishi mumkin, lekin hozirgi paytgacha bunday o'zgarishlarni kiritish uchun konsensusga erishilmagan. Mazkur Kontseptual asos shundan ishlab chiqilgan-ki, u bir qator buxgalteriya hisobi modellari hamda kapital va kapitalni saqlab turish kontseptsiyalariga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Iqtisodchi olim B.Juraevning e'tirof qilishicha: "Ixtisoslashtirilgan xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratilgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ning ahamiyati butun dunyoda yil sayin oshib bormoqda. Lekin buxgalteriya hisobini xalqaro darajada standartlashtirish jarayoni murakkab va buxgalteriya hisobi milliy standartlarining xilma-xilligi bilan bog'liq qator muammolarni hal etishni talab qiladi. Ular hisob ob'ektlarini turlicha baholash, hisobot ko'rsatkichlarini har xil aniqlanishini belgilaydi. Hattoki u yoki bu ob'ektni hisobga olishga yondashuvdagi bitta tafovut mazkur ob'ekt bilan bog'liq bo'lgan, boshqa ob'ektlardagi ko'rsatkichlarning farq qilishiga olib keladi... MHXS (IAS)ning – Moliyaviy hisobotni taqdim etish nomli xalqaro standartiga muvofiq hisob siyosati – korxonalar tomonidan moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish uchun qabul qilingan aniq tamoyillar, usullar, jarayonlar, qoida va tartiblar deb belgilangan".<sup>9</sup>

---

<sup>8</sup> Абдурахманов Р.А.. МСФО – основа реформирования национальных систем бухгалтерского учета и отчетности. Мустақиллик йилларида Ўзбекистон молия-банк тизимининг ривожланиши. Илмий-амалий анжумани мақолалари тўплами. (2016 йил 25 ноябр).-Т.: ТДИУ, 2016. - 684 б.(Б.282)

<sup>9</sup> Б.Жўраев. "Иқтисодий таҳлил ва аудитни такомиллаштириш масалалари". Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Т.: ТДИУ, 2015.

#### **1.4. Buxgalteriya hisobi modellari va tizimlarining tasnifi**

Baholash asoslarini va kapitalni saqlab turish kontseptsiyasini tanlash moliyaviy hisobotlar tayyorlanishida qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi modelini belgilaydi. Turli hisob modellari o'rinlilik va ishonchlilikning turli darajalarini ko'rsatadi, va boshqa sohalardagi kabi, rahbariyat o'rinlilik va ishonchlilik o'rtasida muvozanatga erishishga harakat qilishi kerak. Mazkur Kontseptual asos hisob modellarining bir qatoriga nisbatan qo'llanilishi mumkin hamda tanlangan model asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Hozirgi vaqtda, giperinflyatsion iqtisodiyot valyutasida hisobot taqdim etadigan tadbirkorlik sub'ektlari uchun kabi istisno holatlardan tashqari hollarda, Kengash muayyan hisob modelini tayinlash niyati yo'qdir. Ammo, bu niyat jahonda sodir bo'ladigan o'zgarishlar sababli qayta ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jahon mamlakatlarida aynan bir xil hisob yuritish tizimlariga ega bo'lgan ikkita ham mamlakat mavjud bo'lmasada, biroq, hisob yuritish tizimining o'xshash ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga ega bo'lgan mamlakatlar ko'plab umumiy jihatlarga ega.

Shu munosabat bilan buxgalteriya hisobining bir necha modellarini ajratish mumkin, bular: *britancha-amerikacha*, *kontinental*, *janubiy amerikacha*, *islom*, *internatsional*. Quyida ushbu modellardan har birining asosiy belgilarini ko'rib chiqamiz.

Britancha-amerikacha modelning asosiy tamoyillari Buyuk Britaniya, AQSh va Gollandiyada ishlab chiqilgan, shuning uchun uni britancha-amerikacha-gollandcha model deb atashadi. Bu model buxgalteriya hisobini yuritishni qat'iy chegaralamaydi. Uning asosiy maqsadi - hisob yuritish amaliyotini investorlar va kreditorlarning axborotga bo'lgan talablarini qondirishga yo'naltirishdan iborat. Mazkur modelni joriy etgan mamlakatlarda, odatda, qimmatli qog'ozlar bozorlari yaxshi rivojlangan bo'lib, aksariyat kompaniyalar ularda moliyaviy resurslarning qo'shimcha manbalariga ega bo'ladi.

Britancha-amerikacha modelga ega mamlakatlar jumlasiga quyidagilar kiradi: Avstraliya, Bagama, Barbados, Benin, Bermuda, Botsvana, Buyuk Britaniya, Venesuela, Gana, Gonkong, Dominikan Respublikasi, Zambiya, Zimbabva, Isroil, Hindiston, Indoneziya, Irlandiya, Kayman orollari, Kanada, Keniya, Kipr, Kolumbiya, Liberiya, Malavi, Malayziya, Meksika, Nigeriya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Panama, Papua-Yangi Gvineya, Puerto-Riko, Singapur, AQSh, Tanzaniya, Trinidad va Tobago, Uganda, Fidji, Filippin, Markaziy Amerika mamlakatlari, JAR, Yamayka.

Kontinental model Yevropa mamlakatlariga xos. Bu yerda biznes asosan kompaniyalarning moliyaviy talablarini qondiruvchi banklar, davlat bilan uzviy bog'langan. Ushbu tizimda buxgalteriya hisobi qonun hujjatlari bilan reglamentlanadi va konservativligi bilan ajralib turadi. Hisob yuritish amaliyoti, birinchi navbatda, hukumatning, ayniqsa, milliy makroiqtisodiy rejasiga muvofiq soliq solish borasidagi talablarini qondirishga yo'naltirilgan. Buxgalteriya hisobini yuritishni kreditorlarning boshqaruv sohasidagi talablariga moslashtirish ustuvor vazifa hisoblanmaydi.

Ta'kidlash lozimki, frantsuz tilida so'zlashuvchi Afrika mamlakatlarining aksariyat qismi buxgalteriya hisobini mazkur tizimiga amal qiladi. Kontinental modelni qo'llovchi mamlakatlar quyidagilar: Avstriya, Jazoir, Angola, Belgiya, Burkina-Faso, Fil Suyagi Qirg'og'i, Gvineya, Gretsiya, Daniya, Misr, Zair, Ispaniya, Italiya, Kamerun, Lyuksemburg, Mali, Marokko, Norvegiya, Portugaliya, Senegal, Serra-Leone, Togo, Frantsiya, Germaniya, Shveysariya, Shvetsiya, Yaponiya.

Janubiy Amerika modelining asosiy farqlovchi belgisi hisob yuritishga doir ma'lumotlarni inflyatsiya sur'atlariga permanent to'g'rilashdan iborat. Umuman olganda hisob yuritish davlat reja organlarining ehtiyojlariga yo'naltirilgan, hisob yuritish metodikalari esa unifikatsiya qilingan. Soliq ko'rsatmalarining bajarilishini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan axborot hisob yuritish va hisobotlarda yaxshi aks ettiriladi.

Janubiy Amerika modelini quyidagi mamlakatlar tomonidan qo'llaniladi: Argentina, Boliviya, Braziliya, Gayana, Paragvay, Peru, Urugvay, Chili, Ekvador.

Islom modeli ilohiyat g'oyalari ta'siri ostida rivojlanib, bir qator xususiyatlarga ega. Xususan, dividendlarga ega bo'lish uchun moliyaviy dividendlarni olish ta'qiqlanadi. Kompaniyalar aktivlari va majburiyatlarini baholashda bozor narxlari afzal ko'riladi.

Internatsional modelni rivojlantirishning zarurati, avvalambor, buxgalteriya hisobini xalqaro valyuta bozorlari chet ellik ishtirokchilarining manfaatlari yo'lida xalqaro talablarga muvofiqlashtirishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi.

Buxgalteriya hisobi milliy tizimining umumiy tushunchasi hisob yuritish tizimining xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagi bir qator mezonlar bilan aniqlashtiriladi:

- hisob yuritish tizimining tarixiy o'rni;
- hisob yuritish va ishlab chiqarish zaxiralarini baholash usullari (xarid qilish qiymati, sotish va o'rtacha chamalangan qiymat, rejadagi tannarx, LIFO, FIFO usullari va h.k.);
- amortizatsiyani hisoblash va uni hisobda aks ettirishning qo'llanilayotgan usullari;
- hisobot shakllari va ko'rsatkichlar, ularni tartibga solishlash;

– firmalar faoliyatini nazorat qilishning tashqi shakllari.

Tasniflar soni tasnifiy guruhlashga qanaqa belgi asos qilib olinganligiga bog'liq.

Quyidagi milliy buxgalteriya tizimlari ham alohida ajratiladi:

– Sharqiy Yevropa mamlakatlari – yagona buxgalteriya hisobi schyotlar rejasining asosan xarajatlarni kamaytirishga, hisob yuritish tizimining maqsadi esa – tannarxni pasaytirishga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir;

– Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari – ikkita buxgalteriya (umumiy va analitik), schyotlar rejasining tuzilishi foydani aniqlash va uning taqsimotiga, hisob yuritish tizimining maqsadi esa – foydani oshirishga yo'naltirilgan;

– Frantsuz hisob tizimining xususiyati – ikki xil buxgalteriya: schyotlar rejasining ishlab chiqarish hisobiga ixtisoslashganligi, buxgalteriya hisobining maqsadi esa – daromadni ko'paytirishga moslashtirilganligi;

Iqtisodiy adabiyotlarning tahlili keyingi paytda hisob yuritishning islom tizimiga e'tibor qaratilayotganligi kuzatilmoqda, bu Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Modelning asosiy mohiyati diniy g'oyalar ta'siri ostida bo'lib, quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

– foyda sifatida dividendlar olish ta'qiqlanadi;

– kompaniyaning aktivlari va majburiyatlarini baholash chog'ida bozor narxlaridan foydalaniladi.

Bundan qariyb o'ttiz yillar avval mamlakatlar iqtisodiy tizimini shakllantirishning muhim omili texnologiyalar emas, dunyo xalqlari madaniyatlari va dasturlangan mentaliteti hisoblanadi, -deya tan olindi. Golland olimi Grey Xofstede IBM kompaniyasining 40 ta mamlakatdagi 117 000 xodimini anketa so'rovidan o'tkazib, birinchilardan bo'lib jahon mamlakatlarini quyidagi umumiy belgilar asosida o'nta madaniy mintaqaga bo'lishni taklif qildi:<sup>10</sup>

– jamoa faoliyatida yakkaxonlik yoki jamoaviylikning nisbati,

– hokimiyat bilan kollektivizm o'rtasidagi uzviy bog'liqlik (barcha rivojlanayotgan mamlakatlarga xos xususiyat hokimiyatning kuchli ta'siri ostida shakllangan kollektivizmning mavjudligi),

– noaniqlikka munosabat (kuchli va kuchsiz),

– ayollar va erkaklar orasidagi nisbat, mardlik va nazokat.

Shundan kelib chiqqan holda quyidagi mintaqalar ajratilgan edi:

– yuksak rivojlangan roman mamlakatlari (Belgiya, Frantsiya, Argentina, Braziliya, Ispaniya, Italiya);

---

<sup>10</sup> Анастакисия Городишенина. Классификация культур Г.Хофстеде. [https://vk.com/topic-48654001\\_27632357](https://vk.com/topic-48654001_27632357)

- sust rivojlangan roman mamlakatlari (Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Venesuela, Kosta-Rika, Chili, Gvatemala, Panama, Peru, Portugaliya, Salvador, Urugvay);
- yuksak rivojlangan Osiyo mamlakatlari (Yaponiya);
- yuksak rivojlangan Afrika mamlakatlari (Sharqiy va G'arbiy Afrika);
- sust rivojlangan Osiyo mamlakatlari (Indoneziya, Pokiston, Tayvan, Hindiston, Malayziya, Filippin);
- Yaqin Sharq mamlakatlari (arab mamlakatlari, Gretsiya, Eron, Turkiya, Yugoslaviya);
- Osiyoning mustamlaka mamlakatlari (Gonkong, Singapur);
- nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlar (Avstriya, Germaniya, Shveysariya; ushbu mintaqaga Isroil ham kiradi);
- ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar (Avstraliya, Kanada, Irlandiya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, AQSh, JAR);
- skandinaviya mamlakatlari (Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya; ushbu mintaqaga Niderlandiya ham kiradi).

G.Xofsted tomonidan taklif etilgan jamiyatni tavsiflovchi madaniy qadriyatlar keyingi tadqiqotlar uchun baza bo'lib, 1985 yilda S.J.Grey <sup>11</sup> tomonidan buxgalteriya hisobi submadaniyati umumiy belgilarining aniqlanishiga olib keldi. S.J.Grey tadqiq etilayotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobining to'rtta o'ziga xos xususiyatini testdan o'tkazishni taklif qildi:

- professionalizm yoki huquqiy tartibga solish – o'zini o'zi boshqarish va huquqiy tartibga solishga qarshi bo'lgan kasbiy jamiyatlar faoliyatini afzal ko'radi;
- tamoyillarning uzunligi yoki o'zgaruvchanligi – alohida korxonalar atrofidagi muhit bilan bog'liq o'zgaruvchanlikka qarshi bo'lgan korxonalar o'rtasida buxgalteriya hisobi amaliyotidagi o'zgaruvchanlikni saqlab turishni afzal ko'radi;
- konservatizm yoki optimizm – faoliyatdagi ehtiyotkorlikka amal qilishni, kelgusida faoliyatning ishonchliligi, optimistik va to'liq tavakkalchiligi uchun ishonchsizlikni bartaraf etishni afzal ko'radi;
- xushmuomalalik va ochiqlik – ochiq va umumiy hisob-kitoblar uchun moliyaviy axborotni rasman talab qiluvchi ma'muriyat va hukumatninggina faoliyatiga taalluqli axborotni oshkor qilishni afzal ko'radi.

---

<sup>11</sup> Энциклопедия по экономике. <http://economy-ru.info/info/32925/>

Ushbu o'ziga xos xususiyatlar tizimli yondashuvdagi buxgalteriya hisobini aniq ta'riflash imkonini beradi. Alohida mamlakatlarning umumiy belgilari submadaniyat sifatida buxgalteriya hisobi normalarining qonun hujjatlarida belgilangan yoki nazarda tutilgan belgilari va shakllarini belgilab beradi.

N.G.Votinovaning yozishicha: "Turli davlatlarda buxgalteriya hisobi tizimlarining turfa ekanligi sabab, ularga turlicha omillar ta'sir qilishidir. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- etakchi nazariyotchi olimlar va professional tashkilotlarning ta'siri;
- ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar (ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi, boshqaruv, moliya tizimi, kadrlar tayyorlash darajasi va h.k.)
- buxgalteriya hisobining huquqiy tartibga solinishi;
- milliy xususiyatlar;
- moliyalashtirish manbalari;
- foydalanuvchilar va ularning o'z oldilarga qo'ygan maqsadlari;
- inflyatsion jarayonlarning ta'siri."<sup>12</sup>

Hisob yuritish amaliyotining barqarorligi nuqtai nazaridan mamlakatlarning alohida guruhlari quyidagilar bilan tavsiflanuvchi to'rtta mintaqaga birlashtirilgan:

- huquqiy tartibga solish va buxgalteriya hisobi tamoyillarining uzunligi;
- etarlicha huquqiy tartibga solinmaslik va buxgalteriya hisobi tamoyillarining uzunligi;
- etarlicha huquqiy tartibga solinmaslik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan foydalaniladigan buxgalteriya hisobi tamoyillarining moslashuvchanligi;
- huquqiy tartibga solish va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi tamoyillarining moslashuvchanligi.

1992 yilda bo'lib o'tgan Yevropa Hisobchilik Kongressida Grey hisobchilik tizimini axborot hajmi va uni oshkor qilish sohasi asosida tasniflash usulini taqdim etdi. U qo'llagan yondashuvlarga ko'ra buxgalteriya hisobi milliy tizimini diskret-konservativ va optimistik ochiq tizimlarga bo'lish mumkin.

Polshalik olim Diter Kortum buxgalteriya hisobining uchta katta modelini ajratadi: ingliz-saksoniya, nemis va lotin (1-jadval).

Iqtisodchi olimlar Myuller G., Gernon X., Miik G.lar buxgalteriya hisobi modellarini to'rtta qismga ajratadilar:

- anglo-amerika modeli;
- g'arbiy yevropa modeli;

---

<sup>12</sup> Вотинава Н.Г. Основные модели бухгалтерского учета в зарубежных странах.-Арх-к: изд-во АГТУ, 2009, с.4

- janubiy amerika modeli;
- internatsional model.<sup>13</sup>

Hisob yuritishning talqini hamda hisob yuritish va hisobotlar milliy tizimlarining xilma-xilligidan kelib chiqib, hisob yuritishni talqin etishning mavjud hisob yuritish va hisobotlar tizimlarini izohlashi mumkin bo'lgan to'rtta asosiy varianti ajratiladi: makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy, mustaqil, bir xil. Mavjud tizimlarning hech biri hisob yuritishning qandaydir bir variantiga muvofiq rivojlanmasligiga qaramay, makroiqtisodiy talqin ayniqsa Shvetsiyada aniq namoyon bo'ladi; mikroiqtisodiy talqin Niderlandiyaning bir necha ko'p millatli korporatsiyalarida o'z aksini topadi; amerika va britaniya modeli hisob yuritishni talqin etishga nisbatan mustaqil yondashuvni aks ettiradi; frantsuz va nemis hisob yuritish tizimlari yagona yondashuvga misol bo'lib xizmat qiladi.

### 1.1-jadval

#### Buxgalteriya hisobi tizimlari modellarining tasnifi

Hisob yuritish modeli	Qisqacha ta'rifi
Ingliz-saksoniya	Ingliz-saksoniya modeli, birinchi galda, shunisi bilan ma'lumki, u aksiyadorlarning talablarini qondiradi. Shuning uchun moliyaviy hisobotlar ushbu foydalanuvchilar guruhi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda imkon qadar ko'proq foyda olishi mumkin bo'ladigan qilib tuzilgan. Boshqa tamoyillarga nisbatan yuqori tamoyil sifatida ishtirok etuvchi ishonchlilik tamoyili buxgalteriya hisobining ushbu modelida ustunlik qiluvchi asosiy tamoyil hisoblanadi, bu buxgalteriya hisobi ingliz-saksoniya tizimini lotin tizimidan tamoyilial jihatdan ajratib turadi
Nemis	Hisob yuritishning nemis modeli shu bilan tavsiflanadiki, u, avvalambor, kreditorning manfaatlariga va uning e'tirozlariga yo'naltirilgan. Shuning uchun bunday mamlakatlarda ehtiyotkorlik bilan baholash tamoyili ustunlik qiladi. Nemis modelida hisobotlar soliq tizimiga bog'liq. Bu yerda aniqlik qoidasi bir muncha boshqacha amal qiladi, buning natijasida foyda solig'ining kamayishiga olib keluvchi ko'p sonli turli omillar paydo bo'ladi. Mazkur tizimda degressiv usul bilan amortizatsiya ajratmalari va rejadan tashqari ajratmalarga ruxsat etiladi. Baholashning ehtiyotkorlik tamoyili asosida o'z zahiralari yaratiladi. Nemis modeliga kiruvchi mamlakatning zahiralari baholash uchun ko'proq LIFO usuli qo'llaniladi. Ushbu model mamlakatlari yashirincha zahiralarni yaratishga ixtisoslashgan
Lotin	Buxgalteriya hisobining lotin modeli Frantsiya, Italiya, Ispaniyaniyada qo'llanilib, ma'lumotlarni hisobotlarda aks ettirishda va buxgalteriya hisobi

<sup>13</sup> Мюллер Г., Гернон Х., Миик Г. Учет: международная перспектива. М.: Финансы и статистика, 1996.



	<p>tamoyillaridan foydalanishda markaziy yo'l bilan tafsiflanadi. Huquqiy normalar mutlaq Absolyutnoe ustunlikka ega.</p> <p>Soliqning ta'siri buxgalteriya hisobidan chiqarib tashlangan. Balansni tuzishda va baholashda schyotlar yagona milliy tizimdn foydalanish katta rol o'ynaydi</p>
--	---

1. AQSh, Kanada, Niderlandiya.
2. Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlari, Kanadadan tashqari.
3. Germaniya, Yaponiya.
4. Kontinental Yevropa mamlakatlari, Germaniya, Niderlaniya va Skandinaviya mamlakatlaridan tashqari.
5. Skandinaviya mamlakatlari.
6. Isroil va Meksika.
7. Janubiy Amerika mamlakatlari.
8. Yaqin va Uzoq Sharqning rivojlanayotgan mamlakatlari.
9. Afrika mamlakatlari, Janubiy Amerika mamlakatlaridan tashqari.
10. Sobiq kommunistik tuzumdan keyingi blok mamlakatlari.

«Bosh mamlakatlar» hisob yuritish tizimiga «ta'sir etish sohasiga» ko'ra uchta soha ajratiladi:

1. Avstraliya va Hindistonda hisob yuritishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi Britaniya modeli.
2. Meksika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarida, shuningdek Isroil va Yaponiyada keng tarqalgan Amerika modeli.
3. Janubiy Yevropada, O'rta yer dengizi hududlarida va tijorat sohasidagi qonun hujjatlari Napoleon Kodeksi namunasi bo'yicha tuzilgan Janubiy Amerika mamlakatlarida mavjud bo'lgan frantsuz modeli.

Amerika buxgalterlar uyushmasi sakkizta tasnifiy belgini ajratadi: siyosiy va iqtisodiy tizimlar, iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliyaviy hisobotlar maqsadlari, hisob yuritish standartlari muallifligi, kasbga tayyorlash va sertifikatlash tamoyillari va kasbiy tayyorgarlik darajasi, kasbiy va etik standartlarning bajarilishini nazorat qilish tizimi, hisob yuritishga doir axborot foydalanuvchilari.

Tadqiqotchilarning katta qismi tomonidan ta'kidlanishicha, mamlakatlarni ularning hisob yuritish tizimlariga muvofiq tasniflash doimiy xususyatga ega emas, ularning ta'sir etish sohalari esa barqaror va o'zaro tutashgan sohalar sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

Amerika auditorlar uyushmasining Xalqaro buxgalteriya standartlari va buxgalteriya tuzilmasi qo'mitasi buxgalteriya hisobi va hisobotlar tizimlarini mamlakatlagi mintaqalar soniga asoslangan tasniflashni taklif qildi. Shuningdek, ta'sir

etishning beshta zonasi asosida tasniflash sub'ektiv sxemasi ham taklif etildi: britaniya, fransuz-ispan-portugal, nemis-golland, amerika, kommunistik.

Amaliyotda har bir mamlakat buxgalteriya hisobi va hisobotlar tizimini yaratishda qaysidir ma'noda qonun hujjatlariga tayanadi. Mamlakatlar o'rtasida standartlarni belgilashga xususiy sektor vakillarini jalb qilish borasida katta farqlar mavjud. Hatto agar Kompaniyalar buxgalteriya hisobotlariga taalluqli ko'rsatmalarning 4-nashridan keyin buxgalteriya hisobi va hisobotlar tizimlarini ma'lum darajada uyg'unlashtirishga erishgan Yevropa hamjamiyati mamlakatlarini taqqoslaydigan bo'lsak ham buxgalteriya yo'li bilan tartibga solishning umumiy darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyada bo'lgani kabi buxgalteriya ishining qarama-qarshi an'alariga ham misollar uchrab turadi. Masalan:

- ingliz umumiy huquq tizimi hamda detallarni yoritishga katta e'tibor qaratiladigan kontinental yurisprudentsiyani belgilab beruvchi fuqarolik kodekslari tizimi o'rtasidagi keskin farq;

- unda faoliyatni nazorat qilish banklar, hukumat va oilalar tomonidan amalga oshiriladigan turli moliyaviy tizimlar (bu Fransiya va Germaniyada namoyon bo'ladi). Buyuk Britaniyaning ma'lumotlarni “adolatli” taqdim etishga intilishini shu bilan izohlash mumkin;

- Fransiya hamda Germaniya buxgalteriya hisobi va hisobotlari tizimini ishlab chiqishda birinchi navbatda soliq qonunlaridan kelib chiqadi.

YeI mamlakatlari buxgalteriya hisobidagi katta farqlardan biri shundan iboratki, unda buxgalteriya hisobi tizimining qonunchilik xususiyati mavjud yoki mavjud emas, bu ma'lum ma'noda ushbu tizimning konservatizmi darajasini belgilab beradi. Birinchi holatda hisob yuritish tartib-taomillari yetarli darajada detallashtirilib, tartibga solingan. Ikkinchi holatda esa hisob yuritish iqtisodiy siyosatning o'zgarishi bilan bog'liq yangi tartiblarga nisbatan oson moslashadi.

Ikkinchi tub farq – buxgalteriya hisobining jamiyatdagi roli. Niderlandiya, Buyuk Britaniya va Irlandiyada hisob yuritish investorlar va kreditorlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Hisob yuritishning asosiy vazifalaridan biri boshqaruv xodimlari ishining samaradorligini tavsiflovchi rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblashdan iborat. Germaniya, Lyuksemburg va Belgiyada hisob yuritish birinchi galda banklar manfaatlarini himoya qilishga mo'ljallangan. Frantsiyada hisob yuritishning davlat organlarini axborot bilan ta'minlashga yo'naltirilgan yagona unifikatsiyalangan tizimi qo'llaniladi.

Chet mamlakatlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalasini ko'rib chiqishda hisob yuritishning ikkita modeli ustunlik qiladi:

- Amerika, Angliya, Yaponiya, Kanada va Gollandiyaning aksariyat korxonalari amaliyotida qo'llaniladigan va, mubolag'asiz, jahonda ustunlik qiluvchi ingliz-amerika modeli;
- Yevropada keng tarqalgan fransuz modeli (olimlar uni fransuz-nemis modeli deb atashadi).

Ayrim chet ellik ekspertlar ikkita ustunlik qiluvchi modelni o'zida birlashtirgan «aralash» modelni ajratishadi.

Buxgalteriya hisobi tizimlari tasnifining xilma-xilligi bugungi kunda dolzarb masala hisoblangan hisob yuritishni uyg'unlashtirish muammosini keltirib chiqaradi.

Bu, birinchi galda, xalqaro xo'jalik va moliyaviy aloqalarning faol rivojlanishi, faoliyatning kreditlanishi va unga investitsiya kiritilishi bilan bog'liq. Iqtisodiyotni, shu jumladan buxgalteriya hisobini isloh qilish yo'lida turgan Ukraina, Rossiya va Belarus Respublikasi ham bundan mustasno emas. Avvalgi hisob yuritish tizimi buyruqbozlik iqtisodiyoti, yagona foydalanuvchi – davlatning talablariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan edi. Bugungi kunda vaziyat tubdan o'zgardi va biz yigirma yildan ortiq vaqt davomida mustaqil yo'ldan borayotganimizga qaramay, bu hol ancha og'riqli kechmoqda va u yana bir necha yillar mobaynida ilmiy xodimlar va amaliyotchilar muhokamasining mavzusi bo'ladi.

Biroq hisob yuritish tizimini qayta qurish yo'lida barcha muammolarni hal etish uchun butun o'tmishni rad etish va G'arb mamlakatlarida yuzaga kelgan hisob yuritish tizimidan nusxa ko'chirish darkor. Hozirgi vaqtda jahonning hech bir mamlakati to'liq yakka-latib qo'yilgan holatda rivojlana olmaydi.

### **1.5. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob tizimi, uning tarkibiy tuzilishi va hisob turlari.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat dasturiga kirgan ustuvor vazifalar va ularni amalga oshirishning iqtisodiy masalalarni yechishda buxgalteriya hisobining o'rni va ahamiyati kattadir.

Buxgalteriya hisobi barcha iqtisodiy fanlar uchun ham manba hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida barcha ma'muriy- boshqaruv xodimlari va ishchi-xizmatchilari iqtisodiy tushuncha hamda jarayonlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Bunday iqtisodiy tushuncha hamda jarayonlar mazmuni «Buxgalteriya hisobi» fanida ko'rib o'tiladigan usul va tamoyillar orqali ifodalanadi.

Buxgalteriya hisobi fani aniq, qiziqarli, tortishuvli va muammoli fanlardan biri hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra buxgalteriya hisobini tashkil qilish va takomillashtirish borasida to'rtta yirik davlat: italyan, fransuz, nemis va angliya-amerika maktablari mavjuddir.

Buxgalterlar axborot beruvchilardir, ya'ni buxgalteriya - aksiyadorlar va boshqaruvchilar kabi foydalanuvchilarga biznesni moliyaviy holatini san'at darajasida

yetkazib berishdir. Ma'lumotlar umumiy moliyaviy hisobotlar shaklida bo'lib, boshqaruv nazoratida iqtisodiy resurslarni raqamlarda ko'rsatadi.<sup>14</sup>

Buxgalteriya hisobining tashkiliy jihatlari borasida bu maktablarning qarashlari bir- biriga o'xshamaydi. Ularning ta'limotlariga ko'ra buxgalteriya hisobi fanining asosi ham har xil talqin qilinadi. Masalan, italyan maktabi vakillari buxgalteriya hisobi fanining asosini algebra va huquq, fransuz maktabi vakillari siyosiy iqtisod, nemis maktabi vakillari matematika, angliya-amerika maktabi vakillari psixologiya deb qaraydilar. Shu sababli buxgalteriya hisobi fanining vazifasi, predmeti, ob'ekti, usul va uslubiyoti, tamoyillari hamda tarkibiy tuzilishi borasidagi ularning qarashlari turlichadir.

Har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z faoliyatining foydalilik darajasini doimo tahlil qilishga va amalga oshirilayotgan jarayonlarning hisobini to'g'ri tashkil qilishlari zarur. Bu sharoitda, buxgalteriya hisobi va tahlilning ahamiyati katta bo'lib, ulardan yanada unumli foydalanish zaruriyati ortib boradi. Chunki, aynan shu sohalar iqtisodiyot sub'ektlarining aytib o'tilgan talablarning bajarili shida muhim o'rinni egallaydi.

Iqtisodiyotimizdagi hisob turlari asosan quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

– iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar va tashkilotlarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish;

– kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;

– korxonalar, tashkilotlar, muassasalar xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish;

– maxsus hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, buxgalteriya hisobining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- asosiy fondlar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'larining kelib tushishi va ularning harakatini to'la va o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash;

- maxsulot ishlab chiqarish, ularni sotish, mexnat unumdorligi, foyda, rentabellik, mexnat xaki fondi, kapital sarflar, byudjet va boshqa tashkilotlar bilan hisoblashish va boshqa kursatkichlar buyicha rejaning bajarilishini aniq aks ettirish, kuzatish va ularning natijalarini topish;

- sub'ektning va uning ayrim bulimlaridagi ishlab chiqarish, kurilish-montaj va boshqa ishlar bilan bogliq xarajatlarni tula aks ettirish, nazorat kilish xamda ishlab chikarilgan maxsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning iktisodiy jixatdan asoslangan hisobot kalkulyatsiyasini tuzish;

-sub'ekt va uning ayrim bulimlarining raxbarlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatining barcha bulinmalariga doir tula va aniq iktisodiy axborot bilan tezlikda ta'minlab turish;

---

<sup>14</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 3 p.

- ta'sislar, aksiyadorlar, sarmoya egalari, yukori tashkilot, moliya, solik, statistika va boshqa buxgalteriya hisoboti ma'lumotlaridan foydalanuvchi tashkilot va shaxslarga uz vaktida topshirish uchun aniq hisobotlarni yaratish;

- boshkaruv karorlarini iqtisodiy jixatdan asoslab berish uchun umumlashtirilgan axborotning tartiblashtirilgan okimini taminlash;

- tula xo'jalik hisobini sub'ekt mikiyosida xamda uning ayrim ishlab chiqarish bulinmalari va brigadalarida joriy etish va mustaxkamlash;

- sub'ektning mablaglaridan tula va unumli foydalanish, undagi mulklarning butligini ta'minlash, iktisodiy tejash tartibiga rioya kilish, sub'ekt jamoasining ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishini jadallashtirish ustidan nazorat yuritish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash.

Mamlakatimizning sub'ektlarida buxgalteriya hisobi 1996 yil 30 - avgustida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asoslanib tashkil etiladi.

Bu Qonunga ko'ra Respublikamizning sub'ektlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobining standartlarini ishlab chikish va tasdiklash Respublika Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobini yuritish tartibi esa me'yoriy xujjatlarda keltirilgan tegishli qoidalariga asoslanadi. Shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun buxgalteriya hisobini soddalashtirib yuritish standarti xam, buxgalteriya hisobining milliy standartlari bilan belgilanadi.

Umuman olganda, rivojlangan mamlakatlarda xozirgi paytda buxgalteriya hisobining 20 dan ortiq tamoyillari mavjud.

Ma'lumki, rejali-ma'muriy iktisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi yuqorida turuvchi vazirliklar, idoralar, statistika va solik organlari kabi davlat boshkaruv organlari uchun axborotlarni yigish va ishlashdan iborat edi. Korxonalar faoliyati tugrisidagi eng muxim masalalar, jumladan, rejalashtirish, narx-navolarni belgilash, mol sotib olish va ularni iste'molchilarga yetkazib berish, korxonalar xodimlarining belgilash va boshqa shu kabi masalalar yukorida turuvchi davlat organlari tomonidan xal qilinar edi. Korxonalar davlat mulkchiligini boshqarishning aloxida bir bosqichi sifatida qaralar, buxgalteriya hisobi esa mulkning but saqlanishi to'grisidagi axborot bilan ta'minlar edi.

Davlat yagona mulk egasi va korxonaning investori bo'lib hisoblanar edi. Bunday sharoitda korxonaning hisoboti davlat topshiriklarini bajarish, davlat byudjetiga qilinadigan ajratmalarning to'g'riligini tekshirish va statistika axborotlarni yig'ish vositasi bulib xizmat qilar edi. Shuning uchun buxgalteriya hisobi va hisoboti oldiga quyiladigan asosiy vazifalar quyidagilardan iborat edi:

-qat'iy bixillik (unifikatsiyalanganlik);

-ishlab chiqarish topshiriqlarining bajarilishini aks ettiradigan kursatkichlarga mo'ljal qilish;

- solik solish bazasini va byudjetga boshqa ajratmalarni hisoblash ;

Sub'ektlarning faoliyati bozor iqtisodiyotida oldingiga karaganda ancha farq qiladi. Bu farqlar quyidagilar bilan bog'lik:

1) Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning tarkibi o'zgarib, davlat mulkchiligi jamiyatdagi mulkchilikning fakat bir turiga aylanadi, sub'ekt faoliyatidan manfaatdor bo'lgan ko'plab yangi mulkchilik yuzaga keladi, chunki ular bu sub'ektga uz mablaglarini qo'yadilar.

2) Sub'ektlar rakobatchilikda yengib chikish va samarali moliyaviy natijalar beradigan qarorlarni qabul qilishga xarakat qiladilar va shu maqsadda bozor kon'yukturasi o'rganadilar, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradilar, mol yetkazib beruvchi va xaridorlarni topadilar, narx-navolarni mustakil belgilaydilar va xokazo.

3) Byudjetdan moliyalash va davlat kreditlarini olishdan tashkari endilikda sub'ektlar fakat xaridorlar va tovarlarni sotish bozorlari uchun rakobatchilik kurashida katnashibgina kolmay, undan tashqari, tijorat banklarining kredit resurslari xamda potensial investorlarning shunday mablaglari uchun raqobatchilik kurashini olib boradilar.

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan hisobchilik va statistika funktsiyalarini bajaruvchi vositasidan sub'ektlarning faoliyati to'grisidagi axborotni yigish, ishlash va topshirish kuroliga aylanadi. Bu axborotdan manfaatdor tomonlar uz ixtiyoridagi vaktincha ortikcha mablaglarni samaralirok investitsiya kilish tugrisidagi asoslangan karorlar kabul kilish uchun foydalanadilar.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda buxgalteriya hisobini biznes tili deb atashadi. Uni urganish xar kandy tilni urganishga juda uxshab ketadi va buxgalteriya hisobida ishlatiladigan kupchilik suzlar xayotda kullaniladigan xuddi shunday suzlarga karaganda boshkacha ma'noga ega bulganligi sababli uni urganish biroz kiyinrok tuyuladi.

Xar kandy til xam buxgalteriya hisobidek, jamiyatning uzgarib borayotgan extiyojiga javoban rivojlanib va uzgarib boradi. Buxgalteriya hisobida kullanib kelinayotgan qoidalar ham yoki ularning bir qismi jamiyatning o'zgarib borayotgan extiyojlarga karab o'zgartirilishi mumkin.

Bunday huquqiy va me'yoriy hujjatlarning yaratilishi hamda ishlab chiqilishi respublikamizda hisob siyosatini olib borish uchun asos bo'ladi. Respublikamizda hisob siyosatini olib borishdan asosiy maqsad jahon amaliyoti va bozor munosabatlari talablariga mos keluvchi hamda xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobi tizimining rivojlantirish konsepsiyasini yaratishdir.

Hisobning paydo bo'lishi bevosita kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan bog'liq. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hisobdan foydalanishgan. qabila boshlig'i o'z qabilasini saqlab qolish uchun qaysi fasl qachon keladi, qabilasida qancha odam bor, ular uchun qancha oziq-ovqat to'plash kerak kabi hisob-kitoblarni amalga oshirgan. Dastlab hisob qurollari sifatida qo'l barmoqlaridan foydalanilgan (ba'zi hollarda bu odatdan hozir ham foydalanamiz). Hozirda ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblangan har bir oilaning o'z hisob-kitobi bor. Qaysi oilada hisob-kitob yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha oilaning turmush sharoiti yaxshi. Bundan ko'rinib turibdiki, hisob insonlarning hayotiy borlig'i va hamkoridir.

Xo'jalik hisobi uch turining o'zaro bog'liqligi yagona dastlabki hujjatlashtirishdan foydalanish bilan ta'minlanadi. Yagona dastlabki hujjatlashtirish deganda hisobning barcha turlaridagi operatsiyalarni aks ettirish uchun bir turdagi

ma'lumotlardan va bir turdagi hujjatlardan foydalanish tushuniladi. Bunday amal hisob ko'rsatkichlaridagi qarama-qarshiliklarni bar-taraf qiladi va hisobdagi parallellik bilan ishlashni yuzaga keltiradi.


Menejerlar nazoratidagi resurs mablag'lar hisobi haqidagi ma'lumotni davriy tarzda berishlarini talab qiladi. Buxgalteriya tomonidan hisoblab chiqarilgan natijalar biznesning iqtisodiy resursini hisobot davomida yuqoriga ko'tarilgan yoki tugaganini ko'rsatadi.<sup>15</sup>

Xo'jalik hisobining har xil turlari va uning butun tizimi uzluksiz rivojlanib boradi. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, texnikasi, ishlash uslublari yaxshilanib bormoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, xalqaro standartlariga javob beradigan va bozor iqtisodiyoti xususiyatlariga mos keladigan hisobning yangi tizimini ishlab chiqishda, olimlar va amaliyotchilar rivojlangan bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarda bu sohada yaratilgan narsalarga ko'r-ko'rona yondoshayotganlari yo'q. Lekin xorij mamlakatlarining amaliyotini o'rganish, ularni chuqur va har tomonlama tahlil qilish Uzbekiston Respublikasida xo'jalik hisobini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Jamiyatning rivojlanib borishi bilan hisob tizimi ham takomillashib, fan sifatida yuzaga kela boshlagan. Hozirgi kunga kelib, hisobning uch turidan joydalaniladi:

1. Operativ (Tezkor) hisob.
2. Statistik hisob.
3. Buxgalteriya hisobi.



1-chizma. O'zbekiston Respublikasining hisob tizimi.

Yuqorida ketirilgan chizmadan ko'rinib turibdiki, sanab o'tilgan hisob turlarining birligi O'zbekiston Respublikasining hisob tizimini tashkil qiladi. Lekin ular vazifalari, tashkil qilishning usul-uslubiyoti kabi belgilari bilan bir-biridan farq ham qiladi.

**Buxgalteriya hisobi** — ichki boshqarish va tashqi iste'molchilarning maqsadlari uchun joriy va yakuniy axborotni olish bilan korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning xo'jalik faoliyati ustidan uzluksiz va o'zaro bog'liq bo'lgan kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat.

Boshqaruvchilar ichki foydalanuvchilarga kiradi. Ular hozirgi natijalarni moliyaviy hisobotini to'laligicha bilishlariga imkoniyati bor.

<sup>15</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 3 p.

Ichki foydalanuvchilarga misol sifatida kompaniyada direktorlar va menejerlar kiradi. Qonunan ichki foydalanuvchiga ma'lumot olish xajmi chegaralmagan.<sup>16</sup>

## **2-mavzu: Moliyaviy hisob va hisobotni tashkil etishda xalqaro standartlardan foydalanish.**

### **Reja:**

- 2.1. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o'rni.
- 2.2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi.
- 2.3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita (MHXSQ) ning maqsadi va uning tavsifi.
- 2.4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari.
- 2.5. Moliyaviy hisobotni tayyorlashning kontseptual asoslari.

**Tayanch iboralar.** *Pul muomalalari siyosati, pul mablag'lari, hisobning vazifalari, kassa muomalalari hisobi, hisob-kitob va valyuta schyoti, akkreditiv, maxsus schyot, FIFO, LIFO, AVYeKO, ish haqi shakllari, investitsiya, debitor, kreditor, kalkulyatsiya, kapital, foyda, zarar, majburiyatlar.*

### **2.1. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlarining asosiy mazmuni va uning buxgalterlarni tayyorlash tizimidagi o'rni.**

Mamlakatimizning rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiya va Inqirozga qarshi qabul qilgan dasturni amalga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholimizning moddiy farovonligini yuksaltirishga erishgani barchamizga katta mamnuniyat va iftixor bag'ishlaydi, albatta.

Nima uchun bizga moliyaviy hisobot standartlari kerak? Standartlar kerakligining sababi, buxgalteriya hisobotlarini bir xil tizimda shakllantirishdir.<sup>17</sup>

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishida malakali buxgalter, auditor mutaxassislarini tayyorlashga zarurat katta.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”ga o'tish esa bugungi kunda respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini xalkaro standartlar asosida tashkil etish zaruratini taqozo etadi.

“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”ning maqsadi va vazifasi xalqaro hisob tizimida mustakil ishlashga tayyorlashdan iborat.

---

<sup>16</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. London, 2015. 17 th Edition. 4-5 p.

<sup>17</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. London, 2015. 17 th Edition. 101 p.



“Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari”– moliyaviy hisobotni taqdim etish, zahiralari, sug’urta shartnomalari, pul mablag’larini siljishi, hisob siyosati, hisob baholarini o’zgartirish va xatolar, muvozanat tuzilgandan keyingi hodisalar, qurilish shartnomalari, foyda solig’i, segment hisobot, asosiy vositalar, ijara, ishchilarga haqlar, davlat subsidiyalarining hisobi va davlat yordami haqida ma’lumot, valyuta kursi o’zgarishining ta’siri, biznesni birlashtirish, qarzlari bo’yicha xarajatlar, nafaqa ta’minoti dasturlari bo’yicha hisob va hisobot, bog’liq tomonlar haqida ma’lumotlarni yoritish, jamlama va alohida moliyaviy hisobotni tuzish, assotsiatsiyalangan korxonalariga investitsiyalar, qo’shma faoliyatda ishtirok etish, moliyaviy instrumentlar, bir aksiyaga to’g’ri keluvchi foyda, oraliq moliyaviy hisobot, sotishga mo’ljallangan uzoq muddatli aktivlar, aktivlarni qadrsizlanishi, baholangan majburiyatlar, shartli majburiyat va aktivlar, nomoddiy aktivlar, investitsiyaviy ko’chmas mulk kabilarni o’z ichiga oladi hamda shu asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash zarurat aylanmoqda.

## **2.2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining yaratilish tarixi.**

Buxgalteriya hisobi predmetining asosiy mazmuni korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning xo’jalik faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan resurslarni samarali boshqarish uchun zarur bo’lgan axborotni shakllantirishdan iborat. Shu mablag’larning sarflanishi, ishlab chiqarish hajmi va faoliyat natijalarini ratsional hamda to’g’ri boshqarish hozirgi vaqtda muhim ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobining predmeti - ishlab chiqarish jarayonidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning samarali boshqarilishida mablag’lar holati hamda ulardan unumli foydalanish haqidagi axborotlarni shakllantirish hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining predmetini o’rganishda, uning tarixiy xarakterini hisobga olish kerak. Chunki buxgalteriya hisobi predmetning mazmuni har xil iqtisodiy tuzumlarda bir xil bo’lmagan. Ularning o’zgarishi bir tuzumdan boshqasiga o’tish paytida, mulkchilik shakllarining rivojlanishi bilan belgilanib borilgan.

Boshlang’ich jamoa tuzumida hisobning predmeti sifatida umumiy mulkchilik tashkil qilgan mablag’lar va shu mablag’lardan foydalanishga doir operatsiyalar qaralgan. Ushbu mulkchilik jamiyatida feodallarning ishlab chiqarish vositalariga va qullarga bo’lgan egaligi hisobning predmeti bo’lgan.<sup>18</sup>

Buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonunning uchinchi moddasiga binoan, buxgalteriya hisobining sub’ektlari bo’lib, Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O’zbekiston Respublikasida ro’yxatga olingan yuridik shaxslar, ularning O’zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarisida joylashgan sho’ba korxonalar, filiallari, vakolatxonalar va boshqa tarkibiy bo’linmalari hisoblanadi.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda buxgalteriya hisobini yuritadi va buxgalteriya (moliya) hisobotini taqdim etadi. Kichik korxonalar buxgalteriya hisobini soddalashtirilgan tartibda yuritadilar (buxgalteriya hisobining milliy standarti №20 «Kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi va

---

<sup>18</sup> Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. USA, 2014. 25th Edition.

hisobotni tuzish tartibi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 23 noyabr 1999 yil 87-raqam bilan ro'yxatga olingan) va soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimiga o'tishlari mumkin

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralalar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir. Buxgalteriya hisobining ob'ektlari jamlama schetlarda aks ettiriladi. Analitik hisobni yuritish tartibi buxgalteriya hisobi sub'ekti tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Buxgalteriya hisobiga qo'yilgan talablar quyidagilardan iborat:

1. Hisobning sodda va tushunarli bo'lishi. Sodda va hamma uchun tushunarli hisobni tashkil etishdan asosiy maqsad, uni murakkablashuviga yo'l qo'ymaslik hamda hisob ma'lumotlaridan keng xalq ommasi foydalana olishini ta'minlashdan iborat.

2. Hisobning rejaliligi. Bu talab yuqorida aytib o'tilgan soddalik talabi bilan chambarchas bog'liqdir. Hisobda albatta zaruriy ma'lumot va ko'rsatkichlarga ega bo'lgan holda, hisob yuritish xarajatlarini iloji boricha kamaytirib borish lozim.

3. Hisobning aniq va to'g'riligi. Bu talab negizida xo'jalik faoliyatlarida kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarni hujjatlarda aniq va to'g'ri qayd etish yotadi. Har xil maqsadlarda yoki e'tiborsizlik qilib xo'jalik hisobini noaniq hamda noto'g'ri aks ettirish qonun buzarlilik hisoblanadi.

4. Hisob ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish, ya'ni hisob ishlariga taalluqli qanday hodisa sodir bo'lgan bo'lsa, albatta o'z vaqtida aks ettirmoq, hujjatlarda qayd qilmoq zarur bo'ladi. Bu talab to'liq bajarilganda xo'jalik faoliyati ustidan boshqaruv olib borish yaxshi yo'lga qo'yiladi, ro'y bergan yoki ro'y berishi mumkin bo'lgan kamchiliklar o'z vaqtida yo'qotiladi.

5. Hisob ko'rsatkichlari bilan reja ko'rsatkichlari- ning birligi. Korxonalar, muassasa, tashkilotlar qaysi mulkchilik shakli asosida faoliyat olib borishidan qat'iy nazar o'z oldiga joriy va kelgusi reja ko'rsatkichlarini tuzib oladi. Butun xo'jalik va ularning tarmoqlari bo'yicha hamda mamlakat miqyosida reja ko'rsatkichlari belgilab olinadi. Xuddi shu ko'rsatkichlar bilan hisob ko'rsatkichlari birligi (shu bilan birga ijobiy farqlar) katta ahamiyat kasb etadi. Hisob ishlab chiqarishning borishi, savdo, ta'minot, qishloq xo'jaligi, qurilish, maishiy xizmat, transport va hokazolar faoliyati qay darajadali haqida ma'lumot beradi, reja bajarilishi ustidan nazorat o'rnatib, tahlil qilish imkonini yaratadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish ichki va tashqi omillarini topish imkoniyatini yaratadi.

Buxgalter buxgalteriya hisobini yuritishda maxfiylikka rioya qilinadi. Buxgalteriya hisobi registrlarining mazmuni bilan tanishishga ma'muriyat ruxsati bilan yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.<sup>19</sup>

Buxgalteriya hisobi registrlari bilan tanishishga ruxsat etilgan shaxslar ularning maxfiyligini saqlashlari shart. Maxfiy

**Xo'jalik mablag'lari va uning tashkil topish manbalari, ularning turkumlanishi.**

---

<sup>19</sup> Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. USA, 2014. 25th Edition.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ma'lum bir davrga moliyaviy holati qay darajada ekanligini, ular mablag'larining joylashishi, ishlatilishi qanday olib borilayotganligini va umuman korxonada xo'jalik faoliyatiga baho berish, nazorat etish, tekshirib borish zarur.

Korxonada aktivlari (boshqacha qilib aytganda mulki) turli xo'jalik mablag'laridan tashkil topgan bo'lib, shular asosida korxonada o'z moliya-xo'jalik faoliyatini olib boradi va nazorat qiladi.

Korxonada aktivlari ikkiga bo'linadi uzoq muddatli va joriy aktivlar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt aniq belgilanadigan operatsiya siklidan foydalanib tovarlar va xizmatlarni yetkazib bersa, u holda balans hisobotidagi joriy va uzoq muddatli aktivlar hamda majburiyatlarning alohida tasnif etilishi aylanma mablag' sifatida doimo muomalada bo'ladigan sof aktivlar bilan sub'ektning uzoq muddatli operatsiyalarida foydalaniladigan aktivlar o'rtasidagi tafovutni farqlash yo'li bilan juda foydali axborot bo'ladi.

Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalariga ko'ra ikkiga bo'linadi o'z mablag'larining manbai va majburiyatlarga. O'z mablag'larining manbai korxonada ta'sischi tomonidan kiritilgan va ishlab topilgan mablag'laridan tashkil topadi. Ularga quyidagilarga kiradi: ustav kapitali, qo'shilgan va zaxira kapitalidan, hamda taqsimlanmagan foyda.

Joriy majburiyatlarga shuningdek bank overdraftlari, to'lanadigan dividendlar, daromad soliqlari, savdo bilan bog'liq bo'lmagan o'zga kreditorlik qarzlari, foizlarni to'lashni talab qiladigan qisqa muddatli majburiyatlarning joriy qismi kiradi.

### **Xo'jalik jarayonlari.**

Korxonada o'z faoliyatini uzluksiz olib borishi uchun mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatishda doimo tovar-moddiy qiymatliklarga ehtiyoj sezadi. Ushbu ehtiyojini qondirish uchun korxonada xo'jalik jarayoni 3ta faza: ta'minot jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni va sotish (realizatsiya) jarayoni muntazam ravishda olib boradi.

Hamma jarayonlar ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari ayrim-ayrim olingan xo'jalik operatsiyalar iborat bo'ladi.

Xo'jalik operatsiyalari deganda, xo'jalik jarayonlarni amalga oshirishda korxonada sodir bo'layotgan iqtisodiy voqea va hodisalar tushuniladi. Bu iqtisodiy voqea va hodisalar korxonada mablag'i va ularning tashkil topish manbalarining holatiga ta'sir qilib, ularni harakatga keltiradi.

Ta'minot jarayoni. Har qanday korxonada o'z xo'jalik faoliyatini boshlashdan oldin avval unga kerak bo'lgan moddiy boyliklar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Korxonada zarur bo'lgan bu moddiy qiymatliklarni mol yetkazib beruvchilardan tuzilgan shartnomaga asosan oladi. Shartnomada muayyan moddiy qiymatlikning nomi, soni, sifati, bahosi, assortimenti va qaysi muddatda olib kelinishi ko'rsatilgan bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayoni. Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun korxonada tegishli moddiy qiymatliklarga ega bo'lishi kerak. Shu moddiy qiymatliklardan foydalanib ishlab chiqarish jarayonida buxgalteriya hisobida ishlab chiqarishga qilingan harajatlarni aks ettiradi hamda ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulotlarni qayd qiladi.

Sotish (realizatsiya) jarayoni. Ishlab chiqarish jarayonidan so'ng yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va keyingi ishlab chiqarishni amalga oshirishdan mahsulotlarni sotish fazasiga keladi. Korxonada mablag'ining aylanishining boshqa fazalari muomala sferasida amalga oshiriladi. Muomala sferasi korxonani moddiy qiymatliklar bilan ta'minlash va tayyor mahsulotlarni sotish fazasidan iborat.

### **Hisobning usullari va uning elementlari**

Hisobning usullari va uning elementlari: hujjatlashtirish va inventarizatsiya, schetlar tizimi (milliy standartlarga asosan) va ikkiyoqlama yozuv, baholash va kalkulyatsiya, buxgalteriya balansi va hisobot.

Usul (metod yunoncha «metodos») tushunchasi ikki ma'noni bildiradi: ayrim voqealarni bilish, o'rganish usuli va alohida usul, harakat usuli yoki ko'rinishi.

Birinchi tushuncha kengroq ma'noga ega bo'lib, har bir fan kabi buxgalteriya hisobi o'z usuli bilan ta'riflanadi. Hisob yuritish tartibini belgilab beruvchi tarkibiy qism sifatida buxgalteriya hisobiga xos bo'lgan quyidagi usullar ma'lum; hujjatlashtirish; inventarizatsiya; baholash; kalkulyatsiya; buxgalteriya hisobi schyotlari; ikkiyoqlama yozuv; buxgalteriya balansi; hisobot. Ushbu tushunchalar usul elementlari ham deyiladi.<sup>20</sup>

Ikkinchi ma'noda - alohida foydalaniladigan usullar ma'nosida - qo'llaniladigan usullar yig'indisi hisobning uslubiyatini tashkil etadi.

Metodologiya buxgalteriya hisobi oldida turgan maqsad va vazifalar ham ularni yechish imkoniyatlari, ya'ni mavjud texnik va texnologik baza bilan belgilanadi. Usulning mazmuni - mazkur fanning predmeti, vazifalari va uning oldiga qo'yiladigan talablar xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Ular buxgalteriya hisobi usulining tarkibiga kiradigan aniq usullarni belgilab beradi.

Eng avval shunga e'tibor berish lozimki, buxgalteriya hisobida sodir bo'ladigan barcha xo'jalik jarayonlari, uning ixtiyoridagi barcha mablag'larni aks ettiruvchi axborotlarni shakllantiradi. Har xil jarayonlarda sodir bo'ladigan operatsiyalar soni hamda korxonada ixtiyorida joylashgan mablag'lar turi va manbalari juda ko'pdir. Har bir xo'jalik operatsiyasi mablag'lar hamda manbalar turi ustidan zaruriy boshqaruv axborotini umumlashtirish, shakllantirish, hujjatlashtirish yordamida kuzatib boriladi.

Hujjatlashtirish buxgalteriya hisobining ob'ektlari ustidan yoppasiga va uzluksiz kuzatishni amalga oshirish imkonini beradigan dastlabki aks ettirish usulidir. Buning uchun har bir alohida operatsiya uchun yoki ularning bir turdagi guruhi uchun dastlabki hisob axborotini muayyan moddiy tashuvchisi tuziladi. Unda amalga oshirilgan operatsiyaning mazmuni qayd etiladi.

Hujjatlashtirish yordamida sodir bo'layotgan xo'jalik operatsiyalari haqida mukammal ma'lumotlar olinadi. Bu ma'lumotlar ularni keyinchalik iqtisodiy jihatdan guruhlash va umumlashtirish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Huquqiy talablarga rioya qilingan holda xujjatlardan foydalanish buxgalteriya hisobining ma'lumotlariga isbotlovchi kuch bag'ishlaydi.

Lekin xo'jalik jarayonida bo'lib o'tayotgan barcha hodisalarni xam hujjatlashtirish yordamida qayd qilib bo'lavermaydi. Jumladan, tabiiy yo'qolish,

---

<sup>20</sup> Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. USA, 2014. 25th Edition.

mablag'larni qabul qilish va topshirshp paytidagi noaniqliklar, hisobdagi xatolar va qolaversa, o'tirliklar tegishli qiymatliklarning haqiqiy miqdorini dastlabki axborotni tashuvchilar hamda hisobda aks ettirilganlaridan chetga og'ishishiga olib keladi. Bunday hodisalarni rasmiylashtirish, ular sodir bo'layotganda emas, balki ma'lum bo'lgandagina mumkin bo'ladi. Dastlabki axborot tashuvchilar tomonidan qayd qilinmay qolgan hodisalar, xujjatlashtirishga zaruriy qo'shimchalar, ya'ni qayta ro'yxatga olish yordamida aniqlanadi. Uning ma'lumotlari yuqorida keltirilgan u yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z vaqtida hisobga olinmay qolgan hisob ko'rsatkichlarini haqiqatdagiga muvofiqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Shunday qilib, xujjatlashtirish va ro'yxatga olish buxgalteriya hisobining ob'ektlarini dastlabki kuzatishni amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Ulardan foydalanish - mulkning but saqlanishi ustidan nazorat qilish imkonini beradi. Hujjatlashtirish va ro'yxatga olishning ma'lumotlari moddiy-javobgar shaxslarning hatti-harakatlari, amalga oshirilayotgan muomalalarning qonuniyligi, mablag'larning to'g'ri saqlanishi, ulardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish va shu kabilar ustidan kuzatish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, xo'jalik operatsiyalari va mablag'lar juda turli-tumandir. Lekin buxgalteriya hisobi ular haqida yig'ma ko'rsatkichlarni berishi kerak. Bu, yig'iladigan ma'lumotlar pul o'lchovlarida ifodalanadi. Buning uchun buxgalteriya hisobida baholash usuli qo'llaniladi. Baholash yordamida natura va mehnat ko'rsatkichlarini pul ko'rsatkichlariga aylantiriladi.

Xo'jalik jarayonini boshqarish uchun uni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha chiqimlarni hisoblab chiqish, har bir jarayonda ishlatilgan ham jonli ham moddiylashtirilgan mehnatni hisoblab chiqish kerak. Bunda xar bir chiqim turining miqdorinigina emas, balki aniq bo'lgan, ularning ob'ektiga tegishli bo'lgan umumiy summasini topish, ya'ni hisobga olinayotgan mahsulotlarning tannarxini aniqlab topish lozim bo'ladi. Mahsulot tannarxi - ishlab chiqarish xarajatlarining miqdori ustidan nazorat qilish uchun qo'llaniladigan kalkulyatsiya yordamida hisoblab topiladi. U ob'ektlarning haqiqiy tannarxini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, kalkulyatsiya buxgalteriya hisobi ob'ektlarini qiymatli o'lchash uchun xizmat qiladi. Ularning qo'llanilishi tijorat hisob-kitobini mustahkamlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, tijorat hisob-kitobiga rioya qilish korxonalar xarajatlari bilan uning faoliyat natijalari o'rtasidagi muvofiqlikni talab qiladi. Xarajatlardan bilan natijalarni solishtirish haqiqiy tannarx kalkulyatsiyasi ma'lumotlariga asoslanadigan puldagi ifodalash yo'li bilan erishiladi.

Buxgalteriya hisobining ob'ektlari tarkibidagi va funktsiyalaridagi farqlanishlar ularning ustidan alohida guruhlar bo'yicha, masalan, mehnat vositalari, buyumlari, pul mablag'lari va hokazolarni kuzatish zarurligini taqozo etadi. Undan tashqari, ushbu guruhlarining ichida mablag'larning alohida turlari va ularning joylashgan joylari bo'yicha tashkil qilish kerak bo'ladi. Demak, hisob bilan alohida ajratilgan har bir mehnat vositasining turi - binolar, mashinalar, uskunalari; mehnat buyumlari - asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i, yarim tayyor mahsulot va boshqalar; pul mablag'lari ularning joylashgan joylari bo'yicha hisob-kitob, valyuta va bankdagi boshqa schyotlar, korxonaning kassasida qamrab olingan bo'lishi kerak. Shu bilan

birga bunday guruhlash ko'pincha yetarli deb hisoblanmaydi. Masalan, mehnat buyumlarining har xil turlari, aytaylik, asosiy materiallar ustidan kuzatish ularning har bir turi, navi, katta-kichikligi va hokazolar to'g'risida ma'lumotlar olishni talab qiladi. Shunga o'xshash guruhlash buxgalteriya hisobida mablag'lar manbalari va xo'jalik jarayonlari bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Xo'jalik mablag'lari va xo'jalik operatsiyalarini aks ettirishda, ularni boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishda, buxgalteriya hisobi ob'ektlarini iqtisodiy jihatdan guruhlashda schyotlardan foydalaniladi.

Axborotni dastlabki tashuvchilardagi ma'lumotlar hisob ob'ektlariga faqat tarqoq bo'lgan tavsifni beradi. Shu sababli schyotlarga ehtiyoj tug'iladi. Bu ma'lumotlarni umumlashtirgan holda guruhlash va summalashtirish lozim bo'ladi. Bunday funktsiyani buxgalteriya hisobida schyotlar bajaradi.

Inventarizatsiya moddiy qiymatliklarni but saqlanishini nazorat qilishdir.<sup>21</sup>

### **2.3. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita(MHXSQ)ning maqsadi va uning tavsifi.**

Hisob siyosati. Moliyaviy hisobot.

Hisob siyosati - buxgalteriya hisobini takomillashtirishning asosiy xususiyati shundaki, davlat tomonidan hisob ishlarini tashkil kilishga doir xujjatlarda buxgalteriya ishlarini uyushtirishning asosiy uslubiy printsiplari bilan birgalikda sub'ektga hisob yuritishda u yoki bu siyosatni, buxgalteriya hisobining shaklini, hisob axborotini ishlash texnologiyasini, buxgalteriya ishlarini tashkil kilish usullarini tanlash xukuklari berilgan. Shu munosabat bilan keyingi yillarda vatanimizdagi hisob nazariyasi va amaliyotida sub'ektning hisob siyosati degan tushuncha paydo bulib, u zamonaviy sharoitdagi buxgalteriya hisobining rivojlanish yunalishini aks ettiradi.

Hisob siyosatini buxgalteriya hisobini yuritish sub'ektning mablaglarini hisobot yilida baxolashning uslubiy koidalarining yigindisi deb ta'riflash mumkin.

Moliyaviy hisobot – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan mahsulot (ish va xizmat)lar sotish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar majmui bo'lib, u sub'ektning moliyaviy -xo'jalik faoliyatining holatini ma'lum davr (chorak, yillik)ga qiymat ko'rinishida aks etishidir. Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lar, ishlab chiqarish xarajatlari, xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish hamda dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.<sup>22</sup>

Hisobot ma'lumotlari bo'yicha korxonalar rahbari mulkdorlar, ta'assischilar, boshqaruv va nazorat tizimi, yuqori tashkilotlar oldida hisobot beradilar.

Tashqi hisobotlarda buxgalterdan nimalarni hisobga olish talab etiladi?

---

<sup>21</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 509 p.

<sup>22</sup> Jo'rayev N. Abduvaxidov F. Sotivoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: 2012, - 457 bet.

Buxgalter o'zining tajribasiga asoslanib, tashqi hisobotlarni tuzishda qonunga asoslangan, moxirona, professional va belgilangan talablarga mos ish yuritishi lozim.

23

Korxonaning yillik buxgalteriya hisoboti tegishli tashkilotlarga topshirilishidan oldin ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Qonunga muvofiq yillik hisobotning quyidagi shakllarini tuzish nazarda tutilgan:

- 1- «Korxonona balansi»;
- 2- «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»;
- 4- «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»;
- 5- «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot».

#### **2.4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini ishlab chiqish, qabul qilish va foydalanish imkoniyatlari.**

Moliyaviy hisobotlar - tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir. Moliyaviy hisobotlarning maqsadi turli foydalanuvchilar uchun iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo'lgan, tadbirkorlik sub'ektining moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlashdan iboratdir. Moliyaviy hisobotlar, shuningdek, rahbariyat tomonidan unga ishonib topshirilgan resurslar boshqarilishining natijalarini aks ettiradi. Ushbu maqsadga erishish uchun, moliyaviy hisobotlar tadbirkorlik sub'ektiga tegishli bo'lgan quyidagi jihatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ta'minlaydi:

- (a) aktivlar;
- (b) majburiyatlar;
- (v) kapital;
- (g) daromad va xarajatlar, jumladan foyda va zararlar;
- (d) mulk egalari tomonidan ularning mulk egalari sifatida amal qilishidagi qilingan qo'yilmalar va ularga taqsimlanadigan summalar; va
- (e) pul oqimlari.

Ushbu ma'lumotlar, izohlardagi boshqa ma'lumotlar bilan birga, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga tadbirkorlik sub'ektining kelgusi pul oqimlarini va, xususan, ularning muddatini va aniqliligini bashorat qilishda yordam beradi.

#### **2.6. Moliyaviy hisobotni tayyorlashning kontseptual asoslari.**

Moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami quyidagilarni qamrab oladi:

- (a) davr oxiriga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;

---

<sup>23</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition. 4 p.

(b) davr uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;

(v) davr uchun kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;

(g) davr uchun pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;

(d) izohlar, ya'ni ahamiyatli hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma'lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;

(e) oldingi davr boshiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, qachonki tadbirkorlik sub'ekti hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo'llasa, yoki o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni retrospektiv tarzda qayta hisoblashni amalga oshirsa, yoki qachonki u 40A-40G bandlarga muvofiq o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni qayta tasniflasi.

Tadbirkorlik sub'ekti mazkur Standartda foydalanilgan hisobot nomlaridan tashqari nomlardan foydalanishi mumkin. Masalan, tadbirkorlik sub'ekti "foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" o'rniga "umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" nomidan foydalanishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekiston Respublikasining hisob tizimi nima?
2. Hisob va hisobot turlari mazmunini ochib bering?
3. Moliyaviy hisobotning milliy va xalqaro standartlarining o'zaro bog'liqligini va farqlarini ayting?
4. Hisobning vazifalari haqida tushuncha bering?
5. Hisobning predmeti va metodlari haqidagi tushunchalarini bayon qiling?
6. Hisobning ob'ekti va tamoyillari to'g'risida fikrlarni bayon qiling?
7. Hisob siyosatining mazmunini yoriting?
8. Moliyaviy hisobot shakllarini tuzish va taqdim etish tartibini ayting?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. London, 2015. 17 th Edition.
2. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. USA, 2014. 25th Edition.
3. Thomas P. Edmonds, Frances M. McNair, Philip R. Olds, Edward E. Milam. Fundamental Financial Accounting Concepts. New York. 2013.
4. Howes, Environmental Cost Accounting: An introduction and practical guide, London: CIMA, 2012.

### **3-mavzu. Moliyaviy hisobotni tayyorlashning kontseptual asoslari.**

Moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plami quyidagilarni qamrab oladi:

(a) davr oxiriga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;



(b) davr uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;

(v) davr uchun kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;

(g) davr uchun pul oqimlari to'g'risidagi hisobot;

(d) izohlar, ya'ni ahamiyatli hisob siyosatlarining va boshqa tushuntirish ma'lumotlarining qisqa bayonini qamrab olgan izohlar;

(e) oldingi davr boshiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot, qachonki tadbirkorlik sub'ekti hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo'llasa, yoki o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni retrospektiv tarzda qayta hisoblashni amalga oshirsa, yoki qachonki u 40A-40G bandlarga muvofiq o'zining moliyaviy hisobotlaridagi moddalarni qayta tasniflansa.

Tadbirkorlik sub'ekti mazkur Standartda foydalanilgan hisobot nomlaridan tashqari nomlardan foydalanishi mumkin. Masalan, tadbirkorlik sub'ekti "foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" o'rniga "umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot" nomidan foydalanishi mumkin.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekiston Respublikasining hisob tizimi nima?
2. Hisob va hisobot turlari mazmunini ochib bering?
3. Moliyaviy hisobotning milliy va xalqaro standartlarining o'zaro bog'liqligini va farqlarini ayting?
4. Hisobning vazifalari haqida tushuncha bering?
5. Hisobning predmeti va metodlari haqidagi tushunchalarini bayon qiling?
6. Hisobning ob'ekti va tamoyillari to'g'risida fikrlarni bayon qiling?
7. Hisob siyosatining mazmunini yoriting?
8. Moliyaviy hisobot shakllarini tuzish va taqdim etish tartibini ayting?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. London, 2015. 17 th Edition.
2. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. USA, 2014. 25th Edition.
3. Thomas P. Edmonds, Frances M. McNair, Philip R. Olds, Edward E. Milam. Fundamental Financial Accounting Concepts. New York. 2013.
4. Howes, Environmental Cost Accounting: An introduction and practical guide, London: CIMA, 2012.

## **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLAR, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

### **1-amaliy mashg'ulot:**

#### **Boshqaruv hisobining mohiyati, uning moliyaviy hisobdan farqi**

### 1-masala.

Quyidagi ma'lumotlarga asoslangan holda:

- a. Ishlab chiqarish hajmi 100% bo'lsa Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar ning sarflagan ish vaqti 432000 soat.
- v. Yordamchi ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar- ning 1 soatiga 20 so'm.
- d. Material sarflari Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilar- ning 1 soatiga 100 so'm.
- e. Doimiy xarajatlar 70000 so'm.
- g. Ishlab chiqarish hajmi 65% 95%
- f. Yarim o'zgaruvchan xarajatlar 60000 75000
- Ishlab chiqarish hajmiga muvofiq ishlab chiqarish bo'limi-ning ustama sarflari bo'yicha smeta tuzing.
- a. ishlab chiqarish hajmi 100%
- v. ishlab chiqarish hajmi 75%
- d. ishlab chiqarish hajmi 85%

### 2-masala.

Kompaniyaning marketing bo'limi bo'yicha faoliyatining natijasini, yalpi foydaning chetlanishini aniqlang.

E s l a t m a: Marketing bo'limi har bir tovar bo'yicha sotish hajmi va birlik mahsulotning bahosi bo'yicha javobgar.

Sotilgan mahsulotlarning hajmi, tannarxi, bahosi va yalpi foyda bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud.

№	K o' r s a t k i c h l a r	Haqiqatda	Reja	Farqi
1	Birlik mahsulot bo'yicha yalpi foyda so'm	200	180	- 20
2	Sotilgan mahsulotning hajmi, dona	15000	20000	- 5000
3	Sotishdan olingan yalpi foyda, so'm	30000000	39600000	- 9600000
4	Birlik mahsulotning sotish bahosi, so'm	2000	1980	200
5	Sotilgan mahsulotning tannarxi, so'm	1800	1800	-

1. Quyidagi omillarning yalpi foydaning hajmiga ta'sirini tahlil qiling:

a. Sotilgan mahsulotning hajmi

v. Mahsulotning sotish bahosi

d. Birlik mahsulotga to'g'ri kelgan foyda

2. Yalpi foydaning hajmi bo'yicha chetga chiqishlarning sabablarini va marketing bo'limining javobgarlik darajasini aniqlang.

### Nazorat savollari

1. Boshqaruv hisobi, turlari va uning tashkil etilishi?

2. Boshqaruv hisobining zamonaviy tizimlari?

2. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishi?

3. Zararsizlik nuqtasini aniqlash tartibi?

#### 4. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish tartibi?

### 2- amaliy mashg'ulot: Boshqaruv qarorlarini qabul qilishi.

#### 1- masala.

**Maqsad** - hisobi turlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

**Vazifa** - keltirilgan vaziyatlarda hisobning qaysi turlaridan foydalanilganligini ko'rsatish.

#### **Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.**

Korxonada faoliyatidagi jarayonlari :

1. Korxonada kassasidan xodimlarga ish haqi berildi.
2. Bosh iqtisodchi aksionerlar kengashiga korxonada tomonidan o'tgan yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va har bir turi bo'yicha o'rtacha sotish narxi haqidagi hisob-kitobni taqdim etdi.
3. Bosh mexanik moddiy-texnik ta'minot bo'limiga ehtiyot qismlarini xarid qilishga buyurtma berdi.
4. Korxonada rahbari xodimlar bo'limi boshlig'iga xodimlarning ma'lumoti haqidagi axborot tayyorlash haqida ko'rsatma berdi.
5. Buxgalter o'tgan oyda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisob-kitobini qildi.
6. Xodimlar bo'limi boshlig'i korxonada rahbariga xodimlarning ma'lumoti haqida axborot taqdim etdi.
7. Buxgalter xodimlarning ish haqlaridan soliqlarni ushlab qoldi va buxgalteriya yozuvlarida aks ettirdi.
8. Korxonada moliya bo'limining boshlig'i aksionerlar kengashiga keyingi yildagi pul mablag'lari harakati bo'yicha smetani taqdim etgan.
9. Moddiy – texnika ta'minoti bo'limi boshlig'i korxonada rahbariga keyingi oyda materiallarni xarid qilish bo'yicha buyurtmani tasdiqlash uchun topshirdi.
10. Kassir limitdan ortiqcha naqd pul mablag'larini bankdagi hisob-kitob schyotiga topshirdi.

**Topshiriq.** Keltirilgan vaziyatlarda hisobning qaysi turlaridan foydalanilganligini ko'rsating.

#### 3-Masala.

**Maqsad**- korxonalar mablag'larini baxolashning oldiga quyilgan talablarni o'rganish.

**Vazifa**- shartda keltirilgan vaziyatlarni ko'rib chiqish va mablag'larni baxolashga quyilgan talablarga rioya qilinishi yoki buzishini aniqlash.

#### **Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.**

1. "Sug'diyoona" MChJ ga ehtiyot qismlarni xarid qilishda ularning qiymatiga transport tayyorlov xarajatlari qo'shilmagan.
2. Ta'minot bo'limi kelib tushgan materiallar haqidagi ma'lumotlarni aniqlangunga qadar, ularni xarid narxlar bo'yicha emas balki o'rtacha bozor

narxlarida baxolandi.

3. “Tong“ OAJ bilan xom ashyo yetkazib berish haqidagi, shartnomani tuzishning maqsadga muvofiqligini baxolash uchun ta’minot bo’limi buxgalteriyadan oldingi partiyalarni xarid qilingan xom ashyo o’rtacha narxi haqidagi ma’lumotlarni talab qilgan. O’tgan ikki yil ichidagi ma’lumotlar bo’yicha hisob -kitoblarni amalga oshiring.

4. “Sug’diyooona” MChJ ga o’tgan yilning yanvar-mart oylarida xom ashyo “Lifo” usuli bo’yicha, aprel-iyun oylarida esa “Fifo” usuli bo’yicha baxolangan.

### Nazorat savollari:

1. Buxgalteriya sub’ektlarida hisob tizimi nima?
2. Buxgalteriya sub’ektlarida hisob va hisobot turlari mazmunini ochib bering?
3. Buxgalteriya sub’ektlarida moliyaviy hisobotning milliy va xalqaro standartlarining o’zaro bog’liqligini va farqlarini ayting?
4. Hisobning vazifalari haqida tushuncha bering?
5. Hisobning predmeti va metodlari haqidagi tushunchalarini bayon qiling?
6. Hisobning ob’ekti va tamoyillari to’g’risida fikrlarni bayon qiling?
7. Hisob siyosatining mazmunini yoriting?
8. Moliyaviy hisobot shakllarini tuzish va taqdim etish tartibini ayting?

### 3- amaliy mashg’ulot:

#### Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish.

##### 1-masala.

**Maqsad** - moliyaviy qo’yilmalar hisobi tartibini o’rganish.

**Vazifa** - qimmatli qog’ozlar harakatini buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettirish.

##### Masalani bajarish uchun ma’lumotlar.

2016 yil yanvar oyida “KIMYo” ochiq aksionerlik jamiyati ustav fondiga teng miqdorda har birining bahosi 1200000 so’mga teng 1000 dona aksiya chiqardi va sotdi. Aksionerlar kengashining qarori bilan dividend miqdori 20 foiz qilib belgilandi. 2013 yil noyabr oyida aksionerlar kengashining qarori bilan dividend miqdori 15 foiz qilib belgilandi. 2012 yil yakuni bo’yicha aksionerlik jamiyatining foydasi 866660000 so’mliqi aniqlandi.

**1-topshiriq.** “KIMYo” ochiq aksionerlik jamiyati ustav fondi miqdorini aniqlang.

**2-topshiriq.** Dividend foizini aniqlang.

**3-topshiriq.** Yil yakunlari bo’yicha har bir aksiya uchun dividend summasini aniqlang.

**4-topshiriq.** Quyidagi jadvalni to’ldiring.

№	Xo’jalik operatsiyalarining mazmuni	Summasi (ming so’m)	Schyotlar korrespondentsiyasi	
			debet	kredit
1.	Aksiya chiqarildi			
2.	Aksiya sotildi to’liq sotildi			
3.	Yil yakunlari bo’yicha dividend hisoblandi			

4.	Hisoblangan dividend berildi			
----	------------------------------	--	--	--

### **12-masala.**

**Maqsad** - kapital, fondlar va moliyaviy natijalar hisobi ustav kapitali hisobini o'rganish.

**Vazifa** - xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ustav kapitalini shakllantirish tartibi va uni buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettirish.

#### **Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.**

“Nur” aksionerlik jamiyatini tashkil etish maqsadida ustav kapitali quyidagi tartibda shakllantirildi:

- 1.Axmedov K.M.- 230000000 so'm.
- 2.Tursunov X.O.- 230000000 so'm.
- 3.Maxmudov A.Yu. - 230000000 so'm.
- 4.Maxkamov T.S. - 230000000 so'm.

Shuningdek, Hakimov F.I. qoldiq qiymati 230000500 so'mga teng bino bilan ustav kapitaliga o'z ulushini qo'shdi. Aksionerlik jamiyati kengashi qarori bilan ustav kapitali miqdorida 5000 dona oddiy aksiya chiqarildi va dividend miqdori 15 foiz qilib belgilandi.

**1-topshiriq.** “Nur” aksionerlik jamiyati ustav kapitali miqdorini aniqlang va ustav kapitalini shakllantirish tartibini buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettiring.

**2-topshiriq.** “Nur” aksionerlik jamiyatining 1 dona oddiy aksiyasi qiymatini aniqlang va bu jarayonni buxgalteriya hisobi yozuvlarida aks ettiring.

## V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR

1. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda hisob tizimi, uning tarkibiy tuzilishi va hisob turlari.
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro va milliy standartlari.
3. Hisobning vazifalari, predmeti, ob'ekti va tamoyillari.
4. Xo'jalik mablag'lari va uning tashkil topish manbalari, ularning turkumlanishi.
5. Hisobning usullari va uning elementlari.
6. Hisob siyosati.
7. Moliyaviy hisobot.
8. Pul mablag'lari va hisob-kitoblar hisobi.
9. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi.
10. Materiallar hisobi.
11. Mehnat va ish haqi hisobi.
12. Moliyaviy qo'yilmalar hisobi.
13. Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblar hisobi.
14. Xarajatlar va ularning hisobi.
15. Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari va hisobi.
16. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni (ish va xizmatlarni) sotish hisobi.
17. Kapital, fondlar, moliyaviy natijalar va majburiyatlar hisobi.
18. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishi.
19. Zararsizlik nuqtasini aniqlash.
20. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish.
21. Moliya organlari, g'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari, davlat maqsadli jamg'armalarni taqsimlovchi organlarda byudjetlar ijrosi hisobini tashkil etish asoslari.
22. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari.
23. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish.
24. Banklarda kredit, lizing va faktoring operatsiyalar hisobi.
25. Banklarda moliyaviy hisobot
26. Xususiy kapital hisobi.
27. Investitsiyalar hisobi.
28. Uzoq muddatli aktivlar hisobi.
29. Joriy aktivlar hisobi.
30. Majburiyatlar hisobi.

## VI. KEYSLAR BANKI

### 1-Keys.

**Maqsad-** Buxgalteriya hisobi obektlarini o'rganish.

**Vazifa-** Xo'jalik mablag'lari va ularni tashkil bo'lish manbalarini keltirilgan shakl bo'yicha guruhlariga ajratish.

<b>Turlari va joylashtirilishi bo'yicha korxonalar mablag'lari</b>	<b>Summa (ming so'm hisobida)</b>	<b>Tashkil bo'lish manbalari</b>	<b>Summa (ming so'm hisobida)</b>
1. Ishlab chiqarishga patent va xokazo.	2503	1 Ustav kapitali va xokazo. Jami	29591
Jami			

### Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

Joriy yilning 1-yanvarida. "Metal gaz" ma'suliyati cheklangan jamiyatning mablag'larning mavjudligi va manbalari.

<b>Xo'jalik mablag'lari va manbalarining nomi.</b>	<b>Summa (ming so'm hisobida)</b>
1. Ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun patent	2303
2. Ustav kapitali	29591
3. Yuk avtomobillari	2796
4. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar	425
5. Traktorlar	1522
6. Avtomashinalar uchun garaj	2332
7. Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari	1988
8. Frezerli dastgohlar	157
9. Ko'p yillik daraxtlar	973
10. Xo'jalikka tegishli bo'lgan asboblari-uskunalar	253
11. Ta'mirlash ustaxonasining binosi	500
12. Kompyuterlar	1
13. Kassadagi pul mablag'lari	198
14. Yoqilg'i	445
15. Idora binosi	3438
16. Issiqxona mo'rilari	265
17. Po'lat tunuka	886
18. Valyuta schyoti	895
19. Tom yopadigan tunuka	355
20. Tayyor maxsulotlar	245
21. Korxonaning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi	802
22. Idishlar	853
23. Qurulish materiallari	672
24. Neft maxsulotlari	1742
25. Sex binosi	827
27. Buyoqlar	285
28. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar	822

29. Ehtiyot qismlar	7356
30. Boshqa ishlab chiqarish binolari	368
31. Materiallar	8
32. Xisobdor shaxslar tomonidan qarzdorlik summasi	177
33. Qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar	150
35. Banklarning qisqa muddatli kreditlari	3324
36. Tayyorlash tashkilotlarining qarzdorligi	597
37. Xodimlar bilan ish haqi bo'yicha hisob-kitoblar	4100
38. Foyda	4276
39. Korxonaning sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzdorligi	75
40. Boshqa ishlab chiqarish zaxiralari	525
41. Aksionerlardan xarid qilingan shaxsiy aksiyalar	4174
42. Rezerv kapitali	517
43. Boshqa debetorlar bilan hisob-kitoblar	112
44. Qo'shimcha kapitallar	781
45. Asosiy ishlab chiqarish	828
	3254

## 2-Keys.

AJ «DUNYO» kassachisining 2015 yil sentyabr oyi uchun hisobot ma'lumotlari bo'yicha xo'jalik operatsiyalari hisobi jurnalini tuzish, 1-sonli jurnal-order va 1-sonli qaydnomaga

### 2015 yil sentyabr oyi uchun kassirning hisobotlaridan ko'chirma

Hujjat №	Kimdan olingan va kimga berilgan (operatsiyalarning mazmuni )	Ko'chirma bo'yicha qiymati	
		Kirim	Chikim
<b>2015 yil 6 oktyabr uchun kassa 34 varaq</b>			
	Kun boshidagi qoldiq	24500	
231	116421 sonli chek bo'yicha (avgust uchun ish haqi berish uchun – 135450 so'm, xo'jalik xarajatlari uchun – 30000 so'm, xizmat safari xarajatlari uchun – 17000 so'm)	182 450	-
232	P. Axmedovadan hisobot osti qiymatlari qoldig'i	360	-
471	L.V. Lutfullaevga hisobot ostida xo'jalik xarajatlari	-	30000
472	K.V. Karimovga hisobot ostida ish safari xarajatlariga	-	17000
473	V.N. Baxromovga 17-sonli bo'nak hisoboti bo'yicha ortiqcha xarajat uchun berildi.	-	290
233	S.V. Safievdan materiallar yetishmasligi bo'yicha qarzdorlikni qoplashga olindi.	197	-
234	O.V. Oripovdan asboblarning ishdan chiqqanligi uchun qarzlarni qoplashga olindi.	118	-
474	226-227-sonli to'lov qaydnomalari bo'yicha avgust oyi uchun ish haqi		73180
475	213146-sonli kvitantsiya bo'yicha kelib tushgan debitorlik qarzni hisob raqamiga to'lovi amalga oshirildi		3000
	Bur kun uchun jami	?	



	Kun oxiriga qoldiq	?	
<b>2015 yil 9 sentyabr uchun kassa 35 varag'i</b>			
	Kun boshidagi qoldiq	?	
235	116422 –sonli chek bo'yicha olingan: - xo'jalik xarajatlari uchun – 20100 so'm - ish safari xarajatlari – 65000 so'm	85100	
236	L.V. Lutfullaevdan hisobot osti qiymati qoldig'i	12000	
237	F.V. Farmonovdan materiallar yetishmasligi bo'yicha qarzdorlikni qoplash	47000	
476	S.V. Saydalievga hisobot ostida ish safari xarajatlari uchun		65000
477	S.O. Sulaymonovga hisobot ostida xo'jalik xarajatlariga		20100
478	228-231 –sonli tshlov qaydnomalari bo'yicha avgust oyi uchun ish haqi		58000
479	213710–sonli kvitantsiya bo'yicha berilmagan ish haqini hisob raqamiga to'lov		1250
	Kun uchun qoldiq:	?	
	Kun oxiridagi qoldiq	?	
<b>2013 yil 21 sentyabr uchun kassa 36 varaq</b>			
	Kun boshidagi qoldiq	?	
238	116423 –sonli chek bo'yicha (ish haqi berish uchun)	11 20100	
239	T. Toshpo'latovdan yetishmovchilik bo'yicha qarzni qoplashga	350	
480	232-239-sonli qaydnoma bo'yicha sentyabr oyi uchun ish haqi schyotiga rejali bo'nak		101 5000
481	9214230-sonli kvitantsiya bo'yicha berilmagan ish haqining hisob raqamiga to'lov		9500
482	S.O. Sulaymonovga bo'nak hisoboti bo'yicha ortiqcha xarajat		450
	Kun uchun qoldiq:	?	
	Kun oxiridagi qoldiq	?	?

### 3-Keys.

“Diyor-baraka” AJ ning quyida keltirilgan operatsiyalari bo'yicha xo'jalik operatsiyalari hisobi jurnali, 2-sonli jurnal-order va 2-sonli qaydnoma tuzish.

**“Diyor-baraka” AJ operatsiyalari bo’yicha hujjatlardan ko’chirma  
2019 yil yanvar holati**

№	Operatsiyalarning mazmuni	Qiymati	
		Xususi	Umumiy
	1-8 yanvar holati uchun hisob raqamidan ko’chirma 1 yanvar holatidagi qoldiq	53 300	
1	Hisob raqamiga qo’shilgan: xaridorlardan ortilgan mahsulot uchun ijarachidan qarzni qoplashga bankning qisqa muddatli krediti		
2	Hisob raqamidan chiqarish: materiallar uchun ta’minotchilarning schyotlari bo’yicha dekabrda maoshni berish uchun chek bo’yicha telefon uchun qarzni qoplashga to’lov topshiriqnomalari bo’yicha		
3	9-18 yanvardagi hisob raqamidan ko’chirma Hisob raqamiga kiritilgan: dekabr oyi uchun berilmagan oylik maoshi to’lovlari xona ijarasi uchun qarzni qoplashga turli debitorlardan xaridorlardan yuklangan mahsulot uchun qisqa muddatli kredit	2700 1500 72 800 25 000	102 000
4	Hisob raqamidan chiqarilgan: telefon uchun qarzdorlikni qoplashga to’lov topshiriqnomalari bo’yicha xo’jalik xarajatlariga chek bo’yicha materiallar uchun ta’minotchilarning schyotlari bo’yicha qisqa muddatli kreditni qoplashga	900 300 7010 39 000	47 210
5	19-31 yanvar uchun hisob raqamidan ko’chirma Hisob raqamiga qo’shilgan: xaridorlardan ortilgan mahsulot uchun xizmatlar uchun qarzlarni qoplashga turli debitorlardan ijaraga olingan turli vositalar uchun kassadan naqd to’lovlar	61 2010 2400 20100	65 600
6	Hisob raqamidan chiqarilgan: Bankning qisqa muddatli krediti bo’yicha qarzni qoplashga materiallar uchun ta’minotchilarning schyotlari bo’yicha bank xizmati uchun qarzni qoplashga to’lov topshiriqnomalari bo’yicha	2600 4770 500	7870
	1 fevral holatidagi jami qoldiq	?	

**4-Keys.**

1. Yanvar oyi uchun xo’jalik operatsiyalari buxgaletriya hisobi schyotlarida va operatsiyalar jurnaliga yozilsin.

2. Ishlab chiqarishga chiqarilgan materiallarning qiymati va 1- fevral qoldig’ini chiqarish:

- FIFO usuli bo'yicha;
  - o'rtacha tannarxi bo'yicha
- Dastlabki ma'lumotlar

Yanvar holatidagi asosiy materiallar qoldig'i: 240 so'mdan 50 kg, umumiy qiymati 12 000 so'm.

Yanvar uchun xo'jalik operatsiyalar

№	Hujjat va operatsiyalarning mazmuni	Umumiy qiymati, so'm
1	<b>“Yantar” AJ 123-sonli schyot-fakturasi (birinchi partiya)</b> Keltirilgan materiallar uchun ta'minotchining schyoti aktseptlangan: - xarid bahosi bo'yicha (440 so'm 30 kg) - QQS schyot bo'yicha jami	13 200 ? ?
2	<b>“Yantar” AJ 169-sonli schyot-faktura (ikkinchi partiya)</b> Materiallar uchun ta'minotchining schyoti aktseptlangan: -xarid bahosi bo'yicha (500 so'mdan 55 kg) - QQS schyot bo'yicha jami:	30 250 ? ?
3	<b>“OMON” AJ 75-sonli schyot-fakturasi (uchinchi partiya)</b> ta'minotchining materiallar uchun schyoti aktseptlangan: -xarid bahosi bo'yicha (400 so'mdan 80 kg) -QQS Schyot bo'yicha jami:	32 000 ? ?
4	bankdagi hisob raqamidan ko'chirma 6010schyot bo'yicha materiallar uchun pul o'tkazilgan	?
5	<b>Buxgalteriya hisob-kitobi</b> To'langan QQS qoplanish uchun taqdim etilgan	?
6	<b>Limitli-davoza kartalari</b> Mahsulot ishlab chiqarishga materiallar chiqarilgan, 180 kg	?

**5-Keys.** 1) masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida mexanik yig'ish sexining yangi binosini vabul qilish-topshirish hujjatini tuzish (№ OS-1 namunaviy shakli).

2. № OS-6 namunaviy shaklining inventarli kartochkasini ochish.

*Dastlabki ma'lumotlar*

“Orion” AJ direktorining 2013 yil 10 martdagi 12-sonli buyrug'i asosida 1-mexanika yig'ish korpusining boshlig'i O.I. Kosimov, OKS a boshlig'i A.N. Naumov va korxonaning bosh hisobchisi L.P. Eshmirzaevlardan tashkil topgan komissiya, 1021/4-sonli loyiha bo'yicha zavod hududida qurilgan 1- mexanik yig'ish korpusining yangi binosini foydalanishga qabul qildilar. Binoning maydoni – 5468 kv.m, birlamchi qiymat – 3 084 000 so'm. Bino gishtdan, poydaveri shlakablokdan, tomi temirdan, elektr toki o'tkazilgan. Normal foydalanish talablariga to'liq javob beradi. Binoni qabul qilish to'g'risida 2010 yil 12 martda 17-sonli akt tuzilgan. Ob'ektga 012-sonli

inventar kartochkasida ro'yxatga olingan 10012 inventar raqami berilgan. Yaroqli foydalanish muddati – 40 yil.

**6-Keys.** 1) masalani bajarish ma'lumotlari asosida 20-sonli burama mix kesuvchi dastgoh qabul-qilish – topshirish dalolatnoma tuzilgan (OS-1 namunaviy shakli).

2) OS-6 shakldagi inventar kartochkani ochish.

*Dastlabki ma'lumotlar*

“Orion” AJ direktorining 2010 yil 15 maydagi 45-sonli buyrug'i asosida 1-mexanika yig'ish korpusi boshlig'i O.I. Kosimov, katta muhandis N.I. Panjiev va texnik V.I. Tolmasovlardan tashkil topgan komissiya metal asbob bilan ishlovchi chilanganlik –burama mix yasovchidastgohni ko'zdan kechirdilar. Dastgohning massasi – 14,5 tonna. Dastgoh “Oksoy” AJ dan to'lov asosida sotib olingan. Ob'ektning qabul qilinishi “Foton” AJ hududida amalga oshiriladi. Dastgohning chiqish muddati – 2013 yil 20 yanvar, 668-sonli texnik pasporti, ob'ektning dastlabki qiymati – 375 355 m.s. Ob'ektни hisobga olishda yaroqli foydalanish muddati 12 yil deb belgilangan. Ob'ekt texnik sharoitlarga mos keladi. Xulosa: ob'ekt foydalanishga qabul qilindi. Hujjatga texnik pasport va 162-sonli schyot ilova qilinadi. 567-sonli inventar kartochkada ro'yxatga olingan 40567 inventar raqami berilgan. Qabul qilish- topshirish hujjati “Orion” AJ direktori R.A. Voxidov tomonidan 2013 yil 18 mayda tasdiqlangan.

### **7-Keys.**

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar asosida :

- nomoddiy aktivlarni chiqarishni hisobda aks ettirish bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish;
- amortizatsiya ajratmalarining har oylik qiymatini hisoblash.

*Dastlabki ma'lumotlar.*

a. “Varta” MChJning balansida “Ish haqi hisobi”kompyuterda o'qitish dasturiga qat'iy mualliflik huquqi kiritilgan. Dasturning dastlabki qiymati – 25 000 mingso'm, hisoblangan amortizatsiya qiymati – 21 950 mingso'm. Komissiyaning qaroriga ko'ra, dasturdan foydalanishni davom ettirish maqsadga muvofiq emas deb belgilandi. Chunki u eskirgan. Komissiyaning xulosasi bayonnoma bilan rasmiylashtirildi.

b. “Kombi” MChJ balasida kitob nashr etishga qat'iy muammliflik huquqi mavjud. Uning dastlabki qiymati – 24 000 mingso'm. Bu huquqdan foydalanish muddati – 10 yil. Mazkur muddat 2013 yilning yanvar oyida yakunlanadi. Bu vaqtda ushbu NMA butunlay samortizatsiyalangan. NMA ning hisobdan chiqarilishini aks ettirish.

c. “Geniy” MChJ balansida insonning intellektual imkoniyatlarini belgilovchi asboblarni kashf etish patenti mavjud. Patentning dastlabki qiymati – 45 000 mingso'm. Ushub aktivga hisoblangan amortizatsiya 14 200ming so'mni tashkil etadi. 2008 yilning mar oyida “Geniy” MChJ kashfiyotlarga patent “Umelie ruki (Mohir qo'llar)” ishlab chiqarish birlashmasiga o'tkazilishi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. “Geniy” MChJ buning uchun 70 800 mingso'm (shu jumladan QQS – 10 800

mingso'm) oldi. Patentni berish shartnomasini ro'yxatga olish uchun 200 AQSh dollari ekvivalentida boj undiriladi. Bojni to'lash kunida AQSh dollari kursi 1890 so'm.

d. 2015 yilning yanvar oyida "Sirius" MChJ 23 600 mingso'm evaziga kompyuter dasturiga qat'iy huquqqa (shu jumladan, QQS -3600 mingso'm) ega bo'ldi. 2015 yil aprelda bu huquqlar boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma hisobiga berilgan. Shartnomaga ko'ra, ushbu hissa 30 000 mingso'm miqdorida baholangan. "Sirius" MChJning amortizatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri hisoblanadi. Kompyuter dasturi qat'iy huquqidan foydalanish muddati 10 yil deb belgilangan.

Xo'jalik operatsiyalari:

1. Dasturga qat'iy huquqlarni xarid qilish xarajatlari aks ettirilgan –
2. Xarid qilingan NMA uchun sotuvchiga to'lov ?
3. Xarid qilingan NMA foydalanishga topshirilgan -?
4. QQS byudjetan qoplangan -?
5. Ta'sis hujjatida belgilangan bahoda boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma hisobiga NMA berish aks ettirilgan -?
6. Ustav kapitaliga qo'yilma hisobiga berilgan NMA balansdan chiqarilishi aks ettirilgan -?
7. Boshqa tashkilotning ustav kapitaliga qo'yilma hisobiga berilgan NMA bo'yicha byudjetdan qoplangan QQS qiymati stornatsiyalangan (3600 - (3600 : 10 yil : 12 oy \* 2 oy)) -?
8. Shaxsiy mablag'lar hisobiga NMA berishda QQS qiymati hisobdan chiqarilgan ?
9. Mazkur operatsiyadan moliyaviy natija aks ettirilgan – 7

### **8-Keys.**

Dastlabki ma'lumotlar asosida vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi varag'i bo'yicha ish haqini hisoblash, har yillik ta'til to'lovini hisoblab chiqish, jismoniy shaxslar daromad solig'ini ushlab qolish, buxgalteriya o'tkazma (provodka)larini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

"Gorizont" AJ ishchisi B.A. Sharipovga 2015 yil uchun ishbay mehnat haqi shartida quyidagilar hisoblangan:

yanvar – 256000 so'm;	iyul – 670000 so'm
fevral – 640000 so'm;	avgust – 660000 so'm;
mart – 266000 so'm;	sentyabr – 620000 so'm;
aprel – 368000 so'm;	oktyabr – 306000 so'm;
may – 463000 so'm;	noyabr – 224000 so'm;
iyun – 265000 so'm;	dekabr – 607000 so'm.

O'tgan 12 oy uchun ishlangan kunlar soni – 242.

2015 yil 3 dan 16 yanvargacha bo'lgan davrda ishchi betob bo'lgan.

Sug'urta staji – 3 yil.

18 yanvardan B.A. Sharipovga buyruqqa ko'ra, 28 kalendar kunidan iborat har yillik mehnta ta'tili belgilangan.

## 9-Keys.

Dastlabki ma'lumotlar asosida qimmatli qog'ozlarni xarid qilish, daromadlar tushumi va ularni sotish bo'yicha buxgalteriya hisob-kitobi va o'tkazmalarini tuzish.

Dastlabki ma'lumotlar

“Sharm” AJ mart oyida fond birjasida “Skat” AJ ning bir donasiga 7500 so'mdan 1000 aksiya xarid qilindi, ularning nominal qiymati 7000so'm.

To'lov hisob raqamidan 7000 ming so'm qisman o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilgan, 5000 ming so'mi “Sharm” AJ kassasidan hisobot ostida belgilangan qiymatni olgan hisobdor shaxs naqd shaklda to'lagan.

Iyulda “Sharm” AJ hisob raqamiga 9000 ming so'm kelib tushgan – 2 chorak uchun “Skat” AJ aksiyalari bo'yicha hisoblangan foizlar.

Oktyabr oyida “Sharm” AJ hisob raqamiga 3-chorak uchun “Skat” AJ aksiyalari bo'yicha 12000 ming so'm foizlar kelib tushdi.

Dekabr oyida “Sharm” AJ fond bozorida “Skat” AJ ga 1000 ta aksiyani 7300 so'mdan sotgan, umumiy qiymati – 7300 ming so'm hisob raqamiga kelib tushgan.

Buxgalteriya tomonidan moliyaviy operatsiyalar bo'yicha moliyaviy natija belgilangan, uning qiymati -----? so'm

## 10-Keys.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

2015 yil yakuni bo'yicha AJ 12 000 ming so'm foyda oldi. Hisobot davrida foydadan byudjetga to'lovlar 1 200 ming so'mni tashkil qiladi. Hisobot yilining taqsimlanmagan foydasini taqsimlash Masalasi bo'yicha aksiyadorlarni umumiy yig'ilishida foydaning qolgan qismini quyidagicha yo'naltirish to'g'risida qaror qabul qilindi: sof foydaning 60 %i dividant tariqasida, shundan  $\frac{3}{4}$  qismi yuridik shaxslarga, qolgan qismi jamiyatning xodimlariga berilishi, sof foydaning qolgan qismi rezerv fondini shakllantirishga yo'naltirilishi belgilab qo'yildi.

Topshiriq:

AJ ning 2015 yildagi sof foydasini aniqlang;

To'lanadigan dividend miqdorini aniqlang (yuridik shaxs hamda jismoniy shaxslar uchun);

To'lanadigan dividenddan 10 % daromad solig'i hisoblansin;

Rezerv fondiga o'tkaziladigan miqdorni hisoblang;

Quyidagi amallarni aks ettiring:

№	Xo'jalik operatsiyalarining mazmuni	Summa m.s		
			debet	kredit
1	Aksiyadorlarga (jismoniy va yuridik shaxslar)ga dividend hisoblandi			
2	Dividentlar summasidan daromad solig'i hisoblandi			

3	Dividentlardan ushlab qolingani soliq summasi byudjetga o'tkazildi			
4	Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash aks ettirildi			
5	Taqsimlanmagan foydani qolgan qismi rezerv fondini shakllantirishga yo'naltirish aks ettirildi			

### 11-Keys

Kompaniya o'zining faoliyatida asosan ikki turdagi (A va V) mahsulot ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmining 50% A mahsulot va 25% V mahsulot tashkil qiladi va A mahsulotning yillik hajmi 1000 dona va V mahsulotning yillik hajmi esa 500 donani tashkil qiladi. Har bir mahsulot birligi-ning tasdiqlangan me'yorlari bo'yicha hisoblangan tannarxi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

№	Xarajatlarning moddalari	A	V	Jami
1	Xom ashyo va material sarflari	1800	1200	3000
2	O'zida ishlab chiqarilgan yarimfabrikatlar, transfert bahoda	3100	600	3700
3	Ishlab chiqarishdagi ishchilarning mehnat haqi	700	1300	2000
4	Ijtimoiy muhofaza jamg'armasiga ajratma	280	520	800
5	Ishlab chiqarishning ustama xarajatlari	1500	2800	4300
6	Me'yoriy xarajatlarning jami	7380	6420	13800
7	Sotish bahosi (q.q.s. qo'shilmagan holda)	8000	6800	14800
8	Ishlab chiqarishdan olingan foyda (birlik mahsulot bo'yicha)	620	380	1000

Talab qilinadi:

A. Rejada ko'rsatilgan hajmda mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan sotish hajmining teng bo'lishi sharti asosida ishlab chiqarishdan kutilayotgan foyda hajmini hisoblab chiqing.

V. Quyidagilarga:

a. jami me'yoriy xarajatlar

v. sotilgan mahsulotning bahosiga nisbatan xarajatlarning ay-rim moddalari bo'yicha va mahsulotlarning ayrim turi bo'yicha birlik mahsulotning me'yoriy tannarxini tahlil qiling.

D. Kompaniyaning umumiy foydasiga mahsulot turlarining ulushi bo'yicha va yuqorida keltirilgan shartlarga asosan mahsulot haj-mining me'yoriy tannarxining ta'sirini tahlil qiling.

Ye. A va V mahsulot bo'yicha foyda darajasini oshirish uchun kompaniyaning rahbariga taklif bildirishnoma yozing. Ushbu taklifda muammoni yechishning har xil usullarini:

- a. o'tgan yilga nisbatan materiallarni sotib olish bahosining o'zgarishi
- v. kelgusida materiallarni sotib olish siyosatini belgilash va boshqalarga asosan isbotlang va ko'rsatib bering.

## 12-Keys

Kompaniyaning sopol idishlarini ishlab chiqaruvchi sexi ikki turdagi (A va V) mahsulot ishlab chiqaradi. Ushbu sexda 50 ta ishchi haftasiga 40 soatdan ishlaydi. A mahsuloti uchun tas-diqlangan me'yoriy mehnat haqi donasiga 20 so'm va V mahsuloti uchun 30 so'm. Me'yor bo'yicha sexning ishchilariga soatiga 6 so'm hi-soblanadi. Belgilangan soatdan ortiqcha ishlagani uchun birinchi ikki soatiga 1,5 barobar va ishsiz turib qolganligi uchun esa tas-diqlangan ta'rif darajasining 2/3 qismi to'lanadi. Kompaniya faoliyatining uch oyi ichida quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

№	K o' r s a t k i c h l a r	Oylar		
		I	II	III
1	Ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi, ming dona - A mahsulot - V mahsulot	30.0 20.0	30.5 19.5	40.0 20.5
2	Ishlab chiqarishdagi ishchilarga to'langan mehnat haqi, ming so'm	1317.0	1238.0	1596.0
3	Asosiy ishlab chiqarishda ishchilarning ishlagan ish vaqti, soat	200000	198000	236000
4	Ishlab chiqarishdagi ishchilarga to'langan vaqtlarning miqdori, soat: - asosiy ishlab chiqarishdagi - ortiqcha ishlagan vaqti - ishsiz turgan vaqti	190000 5000 5000	180000 3000 15000	206000 10000 20000

Talab qilinadi:

A. a. Ikkinchi va uchinchi oylarda birinchi oyga nisbatan mehnat sarflari bo'yicha chetga chiqish hisoblansin.

v. Birinchi, ikkinchi va uchinchi oylardagi me'yorga nisbatan chetga chiqishlar hisoblansin.

d. Umumiy chetga chiqish va uning smetadagi foydaga ta'sirini sharxlang.

V. Mehnat haqining darajasi bo'yicha chetga chiqish, uning ko'pa-yishi, bekor vaqtiga to'lovlar va ortiqcha ishlagan soatiga to'lov-larni hisoblab chiqing.

D. Mehnat unumdorligi bo'yicha chetga chiqishni hisoblang. Ushbu chetga chiqishning sabablarini ko'rsating. Mehnat unumdorligi bo'yicha chetga chiqishning smetadagi foydaning hajmiga ta'sirini aniqlang.



**13-Keys.** TIDU akademik litseyning kassasidagi naqd pul va qiymatliklarning mavjudligini tekshirish bosh buxgalter Sh.Fozilov tomonidan, buxgalter S.Imomov va kassir N.Narzullaev ishtirokida 14.02.2015 yil holatida amalga oshirildi.

Kassir N.Narzullaev quyidagi pul kupyura (bilet)larini taqdim etdi: 200 so'mlik 2 dona, 100 so'mlik 1 dona, 25 so'mlik 1 dona, 10 so'mlik 7 dona, 5 so'mlik 12 dona, 3 so'mlik 21 dona, 1 so'mlik 16 dona va tangalar 7 so'm 20 tiyin; kassir tomonidan kassa kirim va chiqim hujjatlari taqdim qilinmadi.

Buxgalteriya va kassa daftoriga binoan kassadagi qoldiq 14.02.2015 yil holatida 19-sonli kassa kirim orderi va 28-kassa chiqim orderlari bilan 721 so'm 10 tiyinni tashkil qilgan.

Bundan tashqari, kassada tovar-transport nakladnoy (yukxati) (170ta pachka, har birida 100 tadan nakladnoy) 3400 so'mga saqlanmoqda. Ushbu qiymatliklar to'g'risidagi ma'lumotlar buxgalteriya ma'lumotlari bilan solishtirilganda ularning ortiqchasi va kamomadi aniqlanmadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni bajaring:

1. Akademik litseyning kassasidagi mavjud pul mablag'larning inventarizatsiya dalolatnomasini tuzing va kassani tekshirish natijalarini aniqlang.
2. Tekshirish natijalari bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bering.

**14-Keys.** Xodimning mehnat staji 1 yil 2 oy, 21 yoshga yetmagan sag'ir yetim, ish haqi 45 000 so'm, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi tufayli 1800 so'm nafaqa hisoblangan. Xodimga beriladigan nafaqa summasini aniqlang, xodimning barcha daromadidan ushlab qolinadigan ushlanmalarni hisoblang va buxgalteriya provodkasini bering.

**15-Keys.** Xodim 126 kalendar kunga homiladorlik va tug'ish nafaqasini hisoblash uchun vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi varaqasini taqdim qildi. Xodimning bir kunlik o'rtacha daromadi 235,50 so'mni tashkil qiladi. Xodimning mehnat staji 2 yil 3 oy. Xodimga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligi tufayli to'lanadigan nafaqa miqdorini hisoblang va ushlab qolinadigan barcha ushlanmalarni ushlab qoling va buxgalteriya hisobi schetlarida aks ettiring.

**16-Keys.**

«Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki Jizzax viloyati filiali buyicha joriy yilning 1 fevral xolatiga quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

*1- jadval  
(ming so'mda)*

№	Balans hisobvaraqlarining nomi	Hisobvaraq raqami	Summasi
1.	"Spot" bitimi bo'yicha xorijiy valyutalardagi foyda		2000
2.	Aylanma kassadagi naqd pullar		1200000
3.	Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari - Oddiy		12500
4.	Bank asosiy vositalarining ijarasi bo'yicha daromadlar		2000000
5.	Bank binosi va boshqa imoratlarining eskirish summasi		845000
6.	Bank tomonidan o'rnatilgan bankomatlar		1

7.	Bank tomonidan o'rnatilgan terminallar, bankomatlar va infokioskalar bo'yicha kontr-hisobvaraqlar	1
8.	Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar	5000000
9.	Bankning qimmatli qog'ozlari blankalari	3
10.	Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqlar	4
11.	Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari	1
12.	Bankomatlardagi naqd pullar	100000
13.	Binolar va boshqa imoratlarning yig'ilgan eskirish summasi	1115000
14.	Bosh bank/filiallardan filiallar va banklararo hisob-kitoblar bo'yicha olinadigan mablag'lar	13 400000
15.	Boshqalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar	228000
16.	Davlat korxonalariga berilgan muddatli kreditlar	350000
17.	Davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar	2550000
18.	Davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	900000
19.	Davlat korxonalarining muddatli depozitlari	1200000
20.	Davlat korxonalarining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar	50000
21.	Davlat korxonalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari	2220000
22.	Davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	85000
23.	Jamg'arma depozitlar bo'yicha to'lash uchun hisoblangan foizlar	50000
24.	Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	298500
25.	Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari	604000
26.	Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar	360000
27.	Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari	500000
28.	Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari	120000
29.	Investitsiya qilingan xususiy kapital bo'yicha olingan dividendlar	950000
30.	Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash	40000
31.	Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar	22000
32.	Qo'shimcha kapital	50000
33.	Mijozlarning akkreditivlari bo'yicha depozitlari	0
34.	Mijozlarning boshqa depozitlari bo'yicha majburiyatlari	26000
35.	Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari	5000
36.	Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraqlar	5000
37.	Muddatli depozitlar bo'yicha to'lash uchun hisoblangan foizlar	350000
38.	Naqd pullar zahirasi	200000
39.	Oldi-sotdi kimmatli kogoszlari-Korxonalarining ulushli qimmatli qog'ozlari	10952100
40.	Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring	2500000
41.	Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar-Korxonalarining ulushli qimmatli qog'ozlari	0
42.	Taqsimlanmagan foyda	9712100
43.	To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari	400
44.	To'lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha kontr-hisobvaraqlar	400
45.	Umumiy zaxira fondi	1 850000
46.	Foyda solig'ini baholash	200000

47.	Xizmat safari xarajatlari	5000
48.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar	5400000
49.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi	40000
50.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	622000
51.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar	220000
52.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar	360000
53.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning muddatli depozitlari	800000
54.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari	3600000
55.	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar	1000000
56.	Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli	15 400000
57.	Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy	1500000
58.	Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari	1000000

**Topshiriq:**

1. Hisobvaraqlar rejasidan foydalanib balans hisobvaraqlari raqamini aniqlang.
2. 1-jadvalma'lumotlar asosida bankning kunlik balansini tuzing.

**AT «Agrobank» banki XXXXXX filiali**

**Kunlik balans**

(20\_\_ yil 1 fevral xolatiga)

№	h/v raqami	Hisobvaraqlar nomi	Aktiv qoldiq (D-t qoldiq)	Passiv qoldiq (K-t qoldiq)
<b>Aktivlar</b>				
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				
11				
12				
13				
14				

15				
16				
17				
<b>jami</b>				
<b>Majburiyatlar</b>				
18				
19				
20				
21				
22				
23				
24				
25				
26				
27				
28				
29				
<b>jami</b>				
<b>Kapital</b>				
30				
31				
32				
33				
34				
35				
<b>jami</b>				
<b>Daromadlar</b>				
36				
37				
38				
39				
40				
41				
<b>jami</b>				
<b>Xarajatlar</b>				
42				
43				
44				
45				
46				
47				
48				
49				
<b>jami</b>				

<b>Balans</b>			
<b>Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha hisobvaraqlar</b>			
50			
51			
52			
53			
54			
55			
56			
57			
58			
<b>Jami</b>			
<b>Balans</b>			

Izox: balans summasi 43747505 ming so'mga teng bo'lishi kerak

### 17-Keys.

“Kamolon” xususiy korxonasi bankdagi talab qilib olinguncha saqlanadigan hisobvarag'i ochilgan bo'lib, unda 20 mart holatiga 31000,00 ming so'm, bankning xisob raqamida 4200.00 ming so'm pul mablag'i mavjud. 20 mart kuni “Kamolon” xususiy korxonasi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i bo'yicha quyidagi operatsiyalar o'tkazildi:

Masalani yechilishi:

№	Bank operatsiyalarining mazmuni	Qanaqa hujjatga asosan	Summasi (ming so'm)	Provodka	
				D-t	K-t
1	Toshkent asbobsozlik zavodidan olingan asboblardan uchun to'lov to'landi	Schet-faktura	2500	20208	16103
2	Yunusobod soliq nazorati organiga daromad solig'i xisoblandi	Xisob-kitob	1200	20208	22502
3	Sotilgan tovarlar uchun “Osiyo” xususiy firmasidan pul kelib tushdi	Schet-faktura	1800	16103	20208
4	Korxonada o'z ishchi-xizmatchilariga ish xaqi to'lash uchun bankdan naqd pul oldi	Chek daftari	2000	20208	10101
5	Daromad solig'i davlat soliq organlari hisobvarag'iga o'tkazildi	Ish haqi hisoblash kitobi	1200	22502	16103
6	Korxonaning firma do'konidan naqd pul tushumi kelib tushdi	Schet-faktura	3700	10101	20208

### Topshiriq:

1. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asoslanib, amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha buxgalteriya yozuvlari (provodka)ni bering.
2. Kun davomida amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida har bir balans hisobvaraqlari bo'yicha debet va kredit aylanmalari summalarini T-chizmasi orqali

aniqlang.

Dt	20208	Kt
<hr/>		
<u>O.b.q: 31000</u>		
	1) 2500	
	2) 1200	
	3) 1800	
	4) 2000	
	6) 3700	
<hr/>		

Dt ob: 11200                      Kt ob: 0  
O.o.q: 20800

Dt	10101	Kt
<hr/>		
<u>O.b.q: 0</u>		
	6) 3700	4) 2000
<hr/>		

Dt ob: 3700                      Kt ob: 2000  
O.o.q: 1700

Dt	16103	Kt
<hr/>		
<u>O.b.q: 4200</u>		
	3) 1800	1) 2500
		5) 1200
<hr/>		

Dt ob: 1800                      Kt ob: 3700  
O.o.q: 2300

Dt	22502	Kt
<hr/>		
<u>O.b.q: 0</u>		
	5) 1200	2) 1200
<hr/>		

Dt ob: 1200                      Kt ob: 1200  
O.o.q: 0

## VII. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Aktiv</b>	ma'lum bir sanaga pul ko'rsatkichida korxonaning mablag'lari, ularning tarkibi va joylashishini aks ettiruvchi buxgalteriya balansining qismi. Buxgalteriya balansi aktivdan tashqari passivga ham ega. Aktiv va passiv bo'lim va moddalardan iborat. Balansning aktiv tomonining jami passiv tomonining jamiga teng bo'lishi kerak. Aktiv faol degan ma'noni ham anglatadi	Resources a business owns or controls that are expected to provide current and future benefits to the business
<b>Asosiy vositalar</b>	korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar	Part of the work equipment used by the organization in the production of goods (works, services) for the management needs for a period exceeding 12 months
<b>Balans</b>	tenglik degan ma'noni anglatadi, aktiv va passivga bo'linadi	Equality means, is divided into active and passive
<b>Bank kapitali</b>	banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitalar yig'indisi, ya'ni bankning resurslari; 2) bank kapitalining bir qismini tashkil etuvchi banklarning o'z kapitali	Funds invested in a firm by the owners for use in conducting the business
<b>Bank krediti</b>	banklar pulni uning sohiblariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydilar va o'z nomidan qarzga berib, foiz olishdir	Includes Term Loans, Cash Credit, Overdrafts, Bills purchased & discounted, Bank Guarantees, Letters of Guarantee, Letters of credit
<b>Bank</b>	to'lov va kreditlarga vositachilik qiluvchi muassasa. Banklar bo'sh pul mablag'larini yig'adi va ularni tadbirkorlarga foiz hisobida beradigan muassasa	payments and loans to intermediary institutions
<b>Baho</b>	tovar qiymatining pul ko'rinishida ifodalanishi	rating the value of the goods referred to in the form of money
<b>Brutto</b>	tovarlarning idishi yoki o'rovi bilan birgalikdagi og'irligi. Tovarlarning bunday og'irligi ba'zi hollarda zarur bo'lsada, lekin tovarning sof og'irligi haqida aniq ma'lumot berolmaydi. Buning uchun tovarning sof og'irligi (netto)ni aniqlash lozim	the weight of the goods with the bottle or package
<b>Valyuta</b>	bu xalqaro hisob-kitoblarda	Various instruments used to

	ishlatiladigan u yoki bu mamlakat milliy pul birligida ifodalangan to'lov hujjatlari va pul majburiyatlaridir	settle payments for transactions between individuals or organizations using different currencies (e.g. notes, cheques, etc.)
<b>Valyuta intervensiyasi</b>	Markaziy bank tomonidan milliy valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida chet el valyutani sotish va sotib olish operatsiyalaridir	A monetary tool applied by central banks. It occurs when a government buys or sells foreign currency to push the exchange rate of its own currency away from equilibrium value or to prevent the exchange rate from moving toward its equilibrium value
<b>Valyuta kursi</b>	valyuta bozoridagi chet el valyutasiga ega bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqadi	The rate at which one currency may be exchanged for another
<b>Devidend</b>	deb ataluvchi daromad aksionerlarga ularning qo'lidagi aksiyalar soniga muvofiq to'lanadi	Company earnings that may be paid out to shareholders according to the number of shares or stocks they hold. Dividends can be earned on stocks as also units of mutual funds
<b>Depozit sertifikatlari</b>	jang'armachining bankga qo'ygan pul mablag'ini ifodalovchi va muomla muddati tugaganidan keyin kuygan pul mablagini xamda foyda sifatida ustama foizini xukuk va imkoniyatini beruvchi kimmatli kogosdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi	A negotiable instrument issued by a bank evidencing time deposit
<b>Diskont siyosati</b>	Markaziy bankning uchyot stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursiga va to'lov balansining holatiga ta'sir etish siyosatidir	The amount by which a bond or preferred stock sells below its par or face value. In foreign exchange market, it is the amount by which forward price is less than the spot price. In general, it means an extent of reduction in the price / value of the asset/ product which is given when it is sold
<b>Inflyatsiya</b>	mamlakat iqtisodiyotida iste'mol tovarlari va xizmatlari narxlari umumiy darajasining o'sishi	A percentage rate of change in the price level
<b>Obligatsiyalar</b>	zayom oluvchilarni (emmitentini) va kreditlarni (investorni) munosabatlarini rasmiylashtiruvchi kimmatli kog'oz bulib, emmitentini belgilab pul summasini kelishilgan vaktda tulash shartini ifoda kiladi	A negotiable instrument evidencing debt, under which the issuer promises to pay the holder its face value plus interest as agreed



<b>Faktoring</b>	<p>bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – mol yetkazib beruvchilarni (bundan keyingi matnda - mijoz) ular tomonidan bank - moliya agentiga to'lovchilardan (bundan keyingi matnda -to'lovchi) jo'natilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun ular tomonidan aktseptlangan, lekin hali to'lanmagan to'lov talabnomalari bo'yicha pul to'lovini olish huquqini o'tib berishlari evaziga, regres huquqsiz, moliyalashtirish borasidagi bank xizmati turidir</p>	<p>Sale of receivables to a financial institution usually on a 'non-recourse' basis</p>
------------------	--	---

## VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Me'yoriy-huquqiy xujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 2019 yil 27 avgustdagi PF-5789-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: "Xalq so'zi" 28.12.2018.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HAKAKATLAR STRATYEGIYaSI" Farmoni.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2017 yil 16 fevraldagi № 4958-sonli Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 20 apreldagi № 2909 -sonli Qarori.

8. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim vazirligining «Yangi o'quv uslubiy majmualarni tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmani tavsiya etish to'g'risida»gi 2017 yil 1 martdagi №107-sonli buyrug'i.

9. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim vazirligining «Oliy ta'lim muassasalari kafedralari Kengashlarini tashkil etish to'g'risida»gi 2017 yil 13 martdagi №138-sonli buyrug'i.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. - // Xalq so'zi, 2017 yil 15 aprel, № 75 (6769).

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni. - // Xalq so'zi, 2017 yil 19 aprel, № 77 (6771).

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutini ta'sis etish to'g'risida"gi Farmoni. - // Xalq so'zi, 2017 yil 5 may, № 90 (6784).

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. - // Xalq so'zi, 2017 yil, 21 aprel, № 79 (6773).

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 maydagi "O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. - // Xalq so'zi, 2017 yil, 2 may, №86 (6780).

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab – quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori Xalq so'zi, 2017 yil 22 iyun, №123.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 oktyabrdagi PF-5564-sonli "Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. -// Xalq so'zi, 2018 yil 31 oktyabr, № 225 (7183).

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" gi PF-5264-son Farmoni. 2017 yil 29 noyabr.- lex.uz.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 martdagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.13.2018 y.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi PQ-4022-sonli "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2018 y.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi" PF-5635-son [Farmoni](#). 17.01.2019 y.

21. Mirziyoev Sh.M. Xalqqa xizmat qilish, odamlarning manfaatlarini ta'minlash-rahbarlar faoliyatining asosiy mezonidir. - // Xalq so'zi, 2017 yil 13 aprel, №73 (6767).

22. Mirziyoev Sh.M. Asosiy maqsadimiz – mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishdir. - // Xalq so'zi, 2017 yil 28 aprel, №84 (6778).

## **II. Maxsus adabiyotlar.**

1. Jo'rayev N. Abduvaxidov F. Sotivoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. –T.: 2012, - 480 bet.

2. Carl S. Warren, James M. Reeve, Jonathan E. Duchac. Accounting. (ISBN: -13: 978-1-133-60760-1) USA, 2014. 25th Edition.
3. Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 th Edition.
4. Thomas P. Edmonds, Frances M. McNair, Philip R. Olds, Edward E. Milam. Fundamental Financial Accounting Concepts. (SBN 978-0-07-802536-5) , New York. 2013.
5. Howes, Environmental Cost Accounting: An introduction and practical guide, London: CIMA, 2012.
6. Mehmonov S. U. va Ubaydullaev D. Yu. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Sano - standart”. 2013. 454 b.
7. Abduvaxidov F.T. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi. O’quv qo’llanma. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2012. 315 b.
8. Karimov N va boshqalar. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnikasi. O’quv qo’llanma.-T.: TDIU, 2011, 403bet.
9. Ibragimov A. Marpatov M, Rizaev N. Xalqaro moliyaviy xisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya xisobi. O’quv qo’llanma. –T.: Moliya, 2010, 272 bet.
10. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. Darslik –T.: Yangi nashr, 2011. -312 bet.
11. Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik.-T.: “Cho’lpon”, 2011.- 200 b.
12. Sh.T.Ergasheva, R.B.Xasanova. Chet mamlakatlarda buxgalteriya hisobi. (Monografiya). -T.: “Fan va texnologiya”, 2017, 147 bet.
13. Sh. Ergasheva, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, I.R.Ibragimova Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O’quv qo’llanma.// -T.: Iqtisodiyot, 2019. -227 bet.

### **Internet resurslari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [www.cb.uz](http://www.cb.uz)